

F.U.Suvanova

**YOG'LARNI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYASI
FANIDAN
AMALIY MASHG'ULOTLAR**



665
C95

F.U.Suvanova

65341

**“YOG‘LARNI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYASI”
FANIDAN
AMALIY MASHG‘ULOTLAR**

(O‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT
«VORIS-NASHRIYOT»
2020

UDK 545.09(010.8)

BBK 40.450

Suvanova F.U.

“Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar.
O‘quv qo‘llanma. – T.: «Voris–nashriyot», 2020. – 113b.

Taqrizchilar:

I.Isabaev – texnika fanlari doktori, professor

O.Pahjiev – texnika fanlari nomzodi, dotsent

O‘quv qo‘llanma “Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma yog‘larni rafinatsiyalash, gidrogenlash, margarin va mayonez, glitserin va yog‘ kislotalri,sovun ishlab chiqarish texnologik jarayonlar va qurilmalarning turlari bo‘yicha hisoblash uchun misol va masalalarni ichiga olgan. Qo‘llanmada quyidagi hisoblashlar: moddiy va issiqlik hisobi, yordamchi materiallarning sarfi hisobi, uskunalar unumдорлиги, mexanik hisoblari ko‘rib chiqilgan. Masalalar amaliy mashg‘ulotlarda echiladi hamda talabalarga mustaqil ish topshiriqlari sifatida tavsiya etiladi.

O‘quv qo‘llanma 5321000 - oziq-ovqat texnologiyasi (yog‘-moy mahsulotlari bo‘yicha) bakalavriat yo‘nalishlari talabalar uchun mo‘ljallangan. Undan talabalar kurs loyihalarni va bitiruv malakaviy ishlarni bajarish uchun, yog‘-moy sanoati mutaxassislari, tadbirkorlar va fermerlar ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943- 6846-4-5

© F.U.Suvanova, 2020

© «Voris – nashriyot», 2020

KIRISH

O'simlik moylari kungaboqar, paxta, xantal, moy olinadigan zig'ir, kanop, kunjut, ko'knori, dumbul jo'xori, yong'oq, bodom, loviya, er yong'oq, soya, zaytun mevasi va boshqalardan olinadi. Bular ichida oziq-ovqat uchun ishlataladigan eng muhim moylar: kungaboqar, paxta, zaytun, kunjut moyi va boshqalar. Texnikaviy maqsadlarda ishlataladiganlari - zig'ir, nasha urug'i, kanakunjut urug'i, qo'ziqorin moyi va boshqalar hisoblanadi. Bulardan zig'ir va nasha urug'i moyi oziq-ovqat ahamiyatiga ham ega.

Oziq-ovqat sanoatida yog'lar turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi, masalan, shokolad tarkibida kakao yog'i kiradi. O'simlik moylari asosida salomaslar, margarinlar, spredlar, kulinariya yog'lari, mayonez tayyorlanadi.

Yog'lar kosmetika va farmatsevtika sanoatida keng qo'llaniladi. Ularning aniq qo'llanilishi kimyoviy tarkibiga qaysi organik birikmalar va vitaminlar kirishiga bog'liq. O'simlik moylari asosida tibbiyotda ham, kosmetologiyada ham keng qo'llaniladigan turli xil malham (maz), emulsiya, kremlar tayyorlanadi.

Texnik o'simlik moylari xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Jumladan toza holdagi yog' kislotalar ajratib olish,sovun mahsulotlarini tayyorlash va oksidlanadigan moylar olif, lok, bo'yoq, linoleum, maxsus suv o'tkazmaydigan matolar tayyorlashda ishlataladi. O'simlik yog'laridan yog'li bo'yoqlarni ishlab chiqarish uchun erituvchi sifatida foydalaniлади.

Yog'lardan qimmatli mahsulotlar: glitserin, karboksil kislotalar, karboksil kislotalarning tuzlari -sovun, texnik salomas olinadi.

Glitserin texnikada katta va muhim ahamiyatga ega bo'lib, nitroglitserin, gliftal smolalar ishlab chiqarishda, matolar, teri va qog'ozni yumshatuvchilar, emulgatorlar, antifrizlar, surkov moylari, poyabzal moylari,sovun va yelimlar, atir-upa va kosmetik dori vositalari, tibbiyot surtmalari, likyordar, qandolat mahsulotlari komponenti sifatida qo'llaniladi.

Yog‘ kislotalari xo‘jalik va atir sovunlari, yuqori yog‘ spirtlari, alkid smolalarini ishlab chiqarish, plastifikatorlar sifatida, avtoshinalar ishlab chiqarishda va x.k. larni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Yog‘ kislotasining suyuq fraksiyasi (olein) kimyoviy tolalarni - lavsan, neylon ishlab chiqarishda ishlatiladi. Texnik stearin kislotasi avtoshinalarni, fotoplyon-kalarni, polistirollarni tayyorlashda qo‘llaniladi. Texnik stearin kislotasi (stearin) to‘yingan yog‘ kislotalari, asosan stearin va palmitin, hamda oz miqdorda to‘yinmagan kislotalar, olein va izoolein kislotalari aralashmasidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagagi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning III-ustuvor yo‘nalish, 3.3-bandida “... paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘sagan yerlarga kartoshka, sabzavot, oziqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish” belgilab berilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagagi “2017-2021 yillarda respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-2832-sonli qarorida Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zpaxtasanateksport” holding kompaniyasi va “O‘zpaxtayog” AJ tomonidan aholini arzon va sifatlari iste’mol o‘simlik moyi bilan ta’minalash maqsadida, turli tuproq-iqlim sharoitlarga moslashgan, ertapishar, serhosil, kasallik va zararkunandalarga chidamli bo‘lgan soyaning nav va dura-gaylarini ekish, tarkibida moy miqdori yuqori bo‘lgan soya hosili yetishtirish bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan xorijiy hamkorlarni jalb qilishdek bir qator vazifalarni amalga oshirish ishlari nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi “Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risaida”gi 3118-sonli qarorga muvofiq aholini o‘simlik moyi bilan ta’minalash maqsadida o‘simlik moyini ishlab chiqarish hajmlari noan’anaviy moyli o‘simliklar yetishtirish hisobidan oshiriladi.

1. O'SIMLIK MOYLARINI RAFINATSIYALASHNING MODDIY HISOBI

Rafinatsiya - yog'larni qayta ishlash texnologiyaning muhim jarayonidir. Rafinatsiya deb yog'larni aralashma va moyga yo'ldosh moddalardan tozalash jarayoniga aytildi.

Moylarni rafinatsiyalash zamонавиу usullari bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ular orasida asosiy о'rinni gidratatsiya, ishqioiy neytrallash, oqartirish va dezodoratsiya egallaydi.

O'simlik moylarni ishqorli neytrallashning moddiy hisobi (yog' kislotalarni separatorli liniyada neytrallash)

Ishqorli neytralizatsiyalash bo'limi moddiy hisobi chiqindilar va yo'qotishlar miqdorini, xom yog' sarfini va chiqadigan rafinatsiyalangan moy miqdorini, shuningdek kimyoiy moddalar (o'yvchi natriy, natriy gidroksid, fosfor va limon kislotalari) sarfini aniqlash orqali bajariladi.

Hisoblar 1 t xom yog' uchun so'ngra 1 t rafinatsiyalangan moy uchun olib boriladi. O'simlik moylarni ishqorli neytrallashning moddiy hisobi quyidagi misolda keltirilgan.

Hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar: rafinatsiyaga quyidagi sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lgan 1-navli kungaboqar yog'i kelib tushadi. Yog'ning kislota soni 2,2 mg KOH, namlik va uchuvchan moddalar miqdori (yog' massasidan) - $x_1=0,18\%$.

Yog' chiqindilari va yo'qotishlari. Soapstokdagи yog' yo'qotishlari. Ortiqcha ishqor miqdori 15% teng bo'lganda kungaboqar yog'ini neytrallash uchun sarflanadigan 100% li natriy gidroksid miqdori quyidagicha aniqlanadi (ortiqcha koefitsienti $\gamma=1,15$):

$$I_n = Ks \cdot 0,713 \cdot \gamma \quad (1.1)$$

$$I_n = 2,2 \cdot 0,713 \cdot 1,15 = 1,8 \text{ kg/t.}$$

Natriy gidroksid bilan bog'langan yog' kislotalari massasi:

$$G_{yok} = \frac{I_n \cdot M_{yok}}{M_1} = \frac{1,8 \cdot 281}{40} = 12,65 \text{ kg/t.} \quad (1.2)$$

Hosil bo'lgan yog' kislotalarining natriy tuzlari massasi (soapstok tarkibiga o'tgan natriy sovnulari):

$$G_m = \frac{G_{yo.k} \cdot M_s}{M_{yo.k}} = \frac{12,65 \cdot 303}{281} = 13,65 \text{ kg/t}, \quad (1.3)$$

bu yerda: $M_{yo.k}$ - kungabooqar moyining yog' kislotalarini molekulyar massasi, $M_{yo.k} = 281$;

M_s - kungabooqar moyi yog' kislotalarining natriyli sovuni molekulyar massasi, $M_s = 303$;

M_i - natriy gidroksidning molekulyar massasi, $M_i = 40$;

0,713 - kaliy va natriy gidroksidning molekulyar massalari nisbati.

Bog'langan yog' kislotalari bilan birga soapstok tarkibiga ma'lum miqdorda neytral moylar ham o'tadi. Mavjud normativlар bo'yicha o'zini o'zi bo'shatuvchi barabanli separator qurilmalar ishlatilganda soapstokdagи neytral yog' miqdori J_n unga o'tadigan yog'lar umumiyl massasining 20-25% ni tashkil etadi.

Hisoblar uchun gidratlangan 1-navli kungabooqar yog'ini qayta ishslash jarayonida soapstokka o'tayotgan neytral yog' miqdori $J_n = 23\%$ deb olinadi.

Soapstokdagи umumiyl yog' miqdori quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$G_{sm}^* = G_{yo.k} \cdot 100 / (100 - J_n) = 12,65 \cdot 100 / (100 - 23) = 16,4 \text{ kg/t} \quad (1.4)$$

shu jumladan neytral moy miqdori:

$$J_n = G_{sm}^* - G_{yo.k} = 16,4 - 12,65 = 3,75 \text{ kg/t},$$

Separatordan chiqqan yog'da sovun holatda bog'langan yog' kislotalarning o'rtacha qoldiq miqdori:

$$G_m^* = 0,1\% = 1,0 \text{ kg/t}.$$

Shunday qilib, soapstokdagи yog' chiqindilari miqdori:

$$G_{sm}^* = G_{sm}^* - G_m^* = 16,4 - 1,0 = 15,4 \text{ kg/t}.$$

Soapstokning chiqishi. Belgilangan rejimda separatordan chiqayotgan soapstokdagи yog' miqdori J_u o'rtacha 20% tashkil etadi. Soapstokning chiqishi:

$$G_s = G_{sm}^* \cdot 100 / 20 = 15,4 \cdot 100 / 20 = 77,0 \text{ kg/t}. \quad (1.5)$$

Yuvish jarayonida yog' chiqindilari. Yog'lar soapstok ajratilgandan keyin uning tarkibida qolgan sovunni ajratish uchun yumshoq issiq suv

bilan ikki marta yuviladi. Qabul qilingan me'yorlar bo'yicha birinchi yuvishda $W_1=100$ kg/t, ikkinchi yuvishda $W_2=60$ kg/t miqdorda suv beriladi.

Birinchi yuvishda yog' tarkibidan o'rtacha 90% sovun yuviladi, ikkinchi yuvishda yog'da 0,005% cha sovun qoladi. Birinchi yuvishda suv bilan birga 1% dan 15% gacha yoki o'rtacha $G_{n1}=1,3\%$ neytral yog'lar olib ketiladi. Ikkinci yuvishda ishlatalig'an suv tarkibida 0,2-0,3% yoki o'rtacha $G_{n2}=0,25\%$ neytral yog' bo'ladi. Separatordan chiqayotgan yuvilgan suvning tarkibida moy balansi 1,1-jadvalda keltirilgan.

1.1-jadval

Separatordan chiqayotgan yuvilgan suvning tarkibida yog' miqdori, kg/t

Operatsiya	Sovun holatda bog'langan yog'	Neytral yog'	Umumiy
1-yuvilgan suv	$G_m \cdot 0,9 = 1 \cdot 0,9 = 0,9$	$J_{n1} \cdot W_1 / 100 = 1,3 \cdot 100 / 100 = 1,3$	2,2
2-yuvilgan suv	$G_m \cdot 0,1 - 0,05 = 1 \cdot 0,1 - 0,05 = 0,05$	$J_{n2} \cdot W_2 / 100 = 0,25 \cdot 60 / 100 = 0,15$	0,2
Jami	$G_m = 0,95$	$J_{n3} = 1,45$	$V = 2,40$

Sex yog' tutgichidan o'tganda 50% ga yaqin yog' ushlab qolinadi va jarayonga qaytariladi

$$J_{n4} = J_{n3} \cdot 50 / 100 = 1,45 \cdot 50 / 100 = 0,72 \text{ kg/t.}$$

$$\text{Qolgan miqdori } U' = V - J_{n4} = 2,40 - 0,72 = 1,68 \text{ kg/t}$$

yog' tutgichlar orqali rafinatsiya sexining tozalash sistemasiga tushadi va nordonlashtirish orqali taxminan 60% ushlab qolinadi:

$$U'' = U' \cdot 60 / 100 = 1,68 \cdot 60 / 100 = 1,0 \text{ kg/t.}$$

Bu yog'lar ishlab chiqarish chiqindilari hisoblanadi va texnik maqsadda ishlataladi.

Yuvish jarayonida qaytmas yo'qotishlar:

$$\varphi_1 = U - (J_{n4} + U'') = 2,40 - (0,72 + 1,0) = 0,68 \text{ kg/t.}$$

Ishqorli neytrallash va yuvish jarayonida boshqa chiqindilarning o'rtacha me'yori $\psi = 0,20 \text{ kg/t}$.

Boshlang'ich kislota soni 2,2 mg KOH bo'lgan gidratlangan kungaboqar yog'ini yuvish va ishqorli neytralashda chiqindilar umumiy miqdori:

$$\sum O = G_{sm} + U' + \psi = 15,4 + 1,0 + 0,2 = 16,6 \text{ kg/t}. \quad (1.6)$$

Ishqorli neytrallash, yuvish va quritishdagi qaytmas yo'qotishlar

Bu yo'qotishlar quyidagi jarayonlarda hosil bo'ladi:

a) yuvishda yuqorida keltirilgan hisoblar bo'yicha $\varphi_1 = 0,68 = 0,7$

kg/t;

b) quritishda – rafinatsiyaga keladigan va quritilgan moylarning namlik farqi hisobidan ($x_1 = 0,18\%$ va $x_2 = 0,05\%$):

$$\varphi_2 = x_1 - x_2 = 0,18 - 0,05 = 0,13 = 1,3 \text{ kg/t};$$

c) boshqalar (fosfor kislota bilan ishlov berishda fosfatidlar parchalanishidagi yo'qotishlarni ham hisobga olib): $\varphi_3 = 0,20 \text{ kg/t}$.

Ishqorli neytrallash, yuvish va quritishda qaytmas yo'qotishlarning umumiy miqdorri:

$$\sum \varphi = \varphi_1 + \varphi_2 + \varphi_3 = 0,7 + 1,3 + 0,2 = 2,2 \text{ kg/t};$$

Ishqor bilan rafinatsiyalangan, yuvilgan, quritilgan yog' chiqishi:

$$Ar = 1000 - (\sum O + \sum \varphi) = 1000 - (16,6 + 2,2) = 981,2 \text{ kg/t}.$$

1 tonna neytralizatsiyalangan yog' olish uchun sarflangan xom o'simlik yog'i:

$$B = 1000 \cdot 1000 / Ar = 1000 \cdot 1000 / 981,2 = 1019,2 \text{ kg/t}.$$

Gidratatsiya jarayonidagi chiqindilar. Moylar gidratatsiya qilinganda gidratatsion cho'kmadagi yog' chiqindilari $2F$ miqdorda qabul qilinadi, bu erda F suv bilan reaktsiyaga kirmagan fosfatidlar miqdori. Amaliy ma'lumotlarga ko'ra F qayta ishlanadigan yog'ining massasiga nisbatan 0,4-0,6% tashkil etadi.

1.2- jadval

Mahsulot balansi

Ishqorli neytrallash jarayonining moddiy balansi

Komponentlar	1 t rafinatsiyalangan moyga nisbatan, kg	Bir sutkada, t	Bir oyda, t (29 sut)	Bir yilda, ming t (318 sut)
Gidratlangan kungaboqar moyi ($K_s = 2,2 \text{ mg KOH}$), A	1000	300,0	8700	95,4
Rafinatsiyalangan, yuvilgan, quritilg'an moy, A,	981,2	294,36	8536,4	93,61
Chiqindilar jami, $\sum o$	16,6	4,98	144,4	1,58
Shu jumladan -soapstokdagi yog', G_m	15,4	4,62	134,0	1,47
-yog' tutgichda ushlab qolningan texnik yog', U	1,0	0,30	8,7	0,095
-boshqa chiqindilar, ψ	0,20	0,06	1,7	0,02
-qaytmas yo'qotishlar, $\sum \varphi$	2,2	0,66	19,2	0,21
-20% kontsentratsiyali soapstok, G_s	77,0	23,1	670,0	7,35

Hisoblash uchun $F = 0,5\%$ deb qabul qilinsa, gidratatsion cho'kmada chiqindi yog' miqdori:

$$G_g = 2 \cdot 0,5 = 1\% = 10 \text{ kg/t.}$$

U holda gidratlangan yog' ning chiqishi:

$$Ag = Ar - G_g = 981,2 - 10 = 971,2 \text{ kg/t.}$$

1 t rafinatsiyalangan yog' olish uchun sarflangan xom o'simlik yog'i:

$$B' = (1000 \cdot 1000) / 971,2 = 1029,65 \text{ kg/t.}$$

Bir sutkada rafinatsiyalangan yog' chiqishi:

$$0,9712 \cdot 300 = 291,36 \text{ t.}$$

Gidratatsion cho'kmadagi chiqindi yog' miqdori:

$$\text{bir sutkada } G_g \cdot 300 = 3000 \text{ kg} = 3 \text{ t;}$$

$$\text{bir oyda } 3 \cdot 29 = 87 \text{ t;}$$

bir yilda $3 \cdot 318 = 954$ t.

Qushimcha materiallar sarfi

Fosfor kislota sarfi. Amaldagi ma'lumotlarga ko'ra qolgan fosfatidlarni parchalash uchun 1-2 kg/t kontsentrlangan (0,85% li) ortofosfat kislota kiritiladi. Hisoblar uchun fosfor kislota sarfini $D_f = 1,5$ kg/t teng deb qabul qilinadi.

Natriy gidroksid sarfi. Natriy gidroksidi yog' kislotalarni neytrallash va fosfor kislotani bog'lash uchun sarflanadi.

Erkin yog' kislotalarini neytrallash uchun NaOH sarfi I_n (100%) yuqoridagi hisoblarga ko'ra 1,8 kg/t teng.

Ortofosfor kislotani bog'lash uchun NaOH sarfi:

$$I_n = (D_f \cdot 85 \cdot 3 \cdot M_f) / (M_f \cdot 100) = (1,5 \cdot 85 \cdot 3 \cdot 40) / (98 \cdot 100) = 1,57 \text{ kg/t}, \quad (1.7)$$

bu erda: 85- sotilayotgan mahsulotda fosfor kislota miqdori %;

M_f - ortofosfor kislotaning molekulyar massasi, ($M_f = 98$).

NaOH ning umumiy sarfi:

$$I_n' = 1,8 + 1,57 = 3,37 \text{ kg/t}.$$

Turli kontsentratsiyali natriy gidroksid eritmalarining sarfi quyidagicha hisoblanadi:

a) kontsentratsiyasi α 42% teng bo'lgan natriy gidroksidning dastlabki eritmadagi miqdori massa bo'yicha $\alpha = 0,609$ kg/l, zichligi $\rho = 1,449$ kg/l;

dastlabki eritmaning sarfi:

massa bo'yicha

$$g = (I_n' \cdot \rho) / \alpha = (3,37 \cdot 1,449) / 0,609 = 8 \text{ kg/t} \quad (1.8)$$

hajm bo'yicha:

$$V = I_n' / \alpha = 3,37 / 0,609 = 5,51 / t = 0,055 \text{ m}^3/t; \quad (1.9)$$

b) ishchi eritmada natriy gidroksid kontsentratsiyasi 10,9 %; NaOH massa bo'yicha miqdori $\alpha_1 = 0,12$ kg/l, zichligi $\rho_1 = 1,12$ kg/l; ishchi eritma sarfi:

massa bo'yicha:

$$g_1 = (I_n' \cdot \rho_1) / \alpha_1 = (3,37 \cdot 1,12) / 0,12 = 31,5 \text{ kg/t};$$

hajm bo'yicha:

$$V_1 = I_n / a_1 = 3,37 / 0,12 = 28,1 l / t = 0,0281 \text{ m}^3/\text{t}.$$

Gidrotrop qo'shimchalar sarfi. Ishqorli neytrallashda quruq reagent (natriy tripolifosfat yoki natriy sulfat) sarfi texnologik reglament bo'yicha kiritilayotgan NaOH ishchi eritmaning hajmidan 3% tashkil etadi.

Shunga ko'ra reaktiv sarfi:

$$g_p = V_1 \cdot 0,03 = 28,1 \cdot 0,03 = 0,85 \text{ kg/t.}$$

Kontsentratsiyasi $K = 20\%$ bo'lgan eritma massasi:

$$G_e = g_p / 0,2 = 0,85 / 0,2 = 4,25 \text{ kg/t.}$$

Limon kislota sarfi. Rafinatsiyalangan yog'da natriy oleat (sovun) miqdori - 0,005% yoki 1 t yog'da 50 g bo'ladi. Sovunni parchalash uchun talab qilinadigan limon kislotaning nazariy miqdori:

$$x = (210 \cdot 50) / (3 \cdot 303) = 11,5 \text{ g,}$$

bu yerda: 210- limon kislota monogidratining molekulyar massasi; 303-sovunning molekulyar massasi.

Amalda limon kislota sarfi 100% ortiqcha miqdorda olinadi, yoki:

$$g_s = 2 \cdot 11,5 = 23 \text{ g 1 t yog' uchun.}$$

Zichligi $\rho_2 = 1,0188 \text{ g/l}$ bo'lgan 5% li limon kislota eritmaning massasi:

$$G = (g_s \cdot 100) / 5 = (23 \cdot 100) / 5 = 460 \text{ g/t.}$$

Hajm bo'yicha:

$$V = 0,460 / 1,0188 = 0,45 \text{ l/t.}$$

Moylarni neytrallash jarayonida bug' va suv sarfini hisoblash

Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan bug' miqdorini hisoblash

1.Neytrallashdan oldin moyni $t_1 = 20^\circ C$ dan $t_2 = 90^\circ C$ cha yopiq bug' bilan isitish:

$$D = mc(t_2 - t_1)\eta / i, \quad (1.10)$$

bu erda m- mahsulot miqdori, kg, $m = 1000 \text{ kg}$;

c -shu harorat oraliq'ida moyning solishtirma issiqlik sig'imi, kungaboqar moyi uchun $c = 1,92 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$;

η -bug' yo'qotishlarni hisobga olish koeffitsienti, $\eta = 1,05$.

$$D_1 = mc(t_2 - t_1)\eta / i_b = 1000 \cdot 1,92(90 - 20)1,05/1959 = 72,0 \text{ kg.}$$

bu erda i_b - yopiq suv bug'ning foydali entalpiyasi, kJ/kg .

2.Yuvishdan oldin moyni $t_1 = 60^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 90^\circ\text{C}$ cha yopiq bug' bilan isitish, $c = 2,03 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$:

$$D_2 = mc(t_2 - t_1)\eta / i_b = 1000 \cdot 2,03(90 - 60)1,05/1959 = 32,6 \text{ kg.}$$

3.Quritishdan oldin moyni $t_1 = 80^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 120^\circ\text{C}$ cha yopiq bug' bilan isitish, $c = 2,11 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$:

$$D_3 = mc(t_2 - t_1)\eta / i_b = 1000 \cdot 2,11(120 - 80)1,05/1959 = 45,2 \text{ kg.}$$

4.Moyni yuvish uchun ishlatiladigan suvni $t_1 = 70^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 90^\circ\text{C}$ cha o'tkir bug' bilan isitish:

$$D_4 = Wc(t_2 - t_1)\eta / i_0 = 160 \cdot 4,19(90 - 70)1,05/2244 = 6,3 \text{ kg.}$$

bu erda i_0 - o'tkir bug'ning foydali entalpiyasi, $i_0 = 2244 \text{ kJ/kg}$.

5.Suvni $t_1 = 20^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 90^\circ\text{C}$ cha o'tkir bug' bilan isitish:

a)soapstokga qushish uchun $W_s = 50 \text{ kg/t}$;

b)shlamdan yuvish uchun $W_{sh} = 25 \text{ kg/t}$;

suvning solishtirma issiqlik sig'imi, $c = 4,19 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$.

$$D_5 = (W_s + W_{sh}) \cdot (t_2 - t_1)\eta / i_0 = (50 + 25) \cdot 4,19(90 - 20)1,05/2244 = 103 \text{ kg.}$$

6.Me'yoriy hujjatlarga ko'ra bug'ejektorli vakuum-nasosda ishchi bug'ning sarfi:

$$D_6 = 15 \text{ kg}$$

7.Qushimcha sarflar (umumiylar 10%):

$$D_7 = (D_1 + D_2 + \dots + D_6) \cdot 0,1 = 18,1 \text{ kg}$$

Bug'ning 1 t moy uchun umumiylar miqdori:

$$D_u = (D_1 + D_2 + \dots + D_7) = 199,5 \text{ kg.}$$

Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan suv miqdorini hisoblash

1.Rafinatsiya uchun ishlatalidigan natriy gidroksid eritmasini suyultirish uchun sarflanadigan suv miqdori (yuqoridagi hisoblar bo'yicha):

$$W_1 = 0,0281 - 0,055 = 0,022 \text{ m}^3;$$

2.Rafinatsiyalangan moyni yuvish uchun:

$$W_2 = 0,16 \text{ m}^3;$$

3.Bug'ejektorli vakuum-nasosning kondensatorlarini sovutish uchun sarflanadigan suv miqdori:

$$W_3 = 0,48 \text{ m}^3;$$

4.Soapstokni suyultirish va shlamni oqizish uchun suv miqdori:

$$W_4 = 0,075 \text{ m}^3;$$

5.Havo kompressori silindrini sovutish uchun:

$$W_5 = 0,08 \text{ m}^3;$$

6.Qushimcha sarflar (umumiylar sarfdan 10%):

$$W_6 = (W_1 + W_2 + \dots + W_5) \cdot 0,1 = 0,08 \text{ m}^3;$$

Suvning 1 t moy uchun umumiylar sarf miqdori:

$$W_u = W_1 + W_2 + \dots + W_6 = 0,9 \text{ m}^3.$$

Masalalar. 1.Kislota soni 5 mg KOH bo'lgan 80 t/sut paxta moyini neytrallash uchun sarflanadigan ishqor (kontsentratsiyasi 180 g/l) miqdorini va rafinatsiyalangan moyning nazariy chiqishini aniqlang. Ortiqcha ishqor miqdori 100%.

2. Rafinatsiyalangan moyning chiqishini aniqlang. Dastlabki ma'lumotlar: qora yog'ning kislota soni 3,5 mg KOH, ortiqcha ishqor miqdori 100 %, soapstokdagi neytral yog' miqdori – umumiylar yog'ga nisbatan 50 %.

3.Kislota soni 4,0 mg KOH ga teng bo'lgan presslangan paxta moyini neytrallash uchun zarur bo'lgan ishqor miqdorini aniqlang.

4.Kislota soni 2,0 mg KOH ga teng bo'lgan gideratsiyalangan soya moyini neytrallash jarayonining moddiy hisobini bajaring.

Nazorat savollari:

1. Moylardi fosfatidlar miqdori.
2. Gideratsiya jarayonining mohiyati.

3. Gidratatsiya jarayonida gidratlovchi agent miqdorini hisoblash.
4. Gidratatsiya jarayonida yog'ning kislota sonini o'zgarishi.
5. Rafinatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ishqor sarfini hisoblash.
6. Rafinatsiya jarayoniga turli omillarning ta'siri.
7. Neytrallashdagi chiqindilar.
8. Ishqorning ortiqcha miqdori nima uchun olinadi?
9. Chiqindi miqdorini rafinatsiya usuli va yog' tabiatiga bog'liqligi.
10. Neytrallash usullari.
11. Neytralizatsiyalangan yog'dan sovun va namlikni yo'qotish.
12. Paxta yog'ini ishqorli rafinatsiyasi.

O'simlik moylarini oqlash

Uzluksiz usulda sektsiya tipidagi kolonnali apparatda oqlash jarayonining moddiy hisobi

Sorbent miqdori yog'dagi bo'yovchi moddalar miqdoriga va talab qilinayotgan oqartirish darajasiga bog'liq. U 0,5%dan 5% oralig'ida bo'ladi.

Moylarni oqlash jarayonining hisobida oqlovchi tuproqning o'rtacha miqdori yog' massasiga nisbatan 1% yoki:

$$T = 10 \text{ kg/t} \text{ qabul qilinadi.}$$

Siqishdan oldin filtrlardagi oqlovchi tuproq tarkibidagi yog' miqdori:

$$g_1 = 40\%, \text{ siqishdan keyin } g_2 = 15\%.$$

Oqlovchi tuproqning sarfi: liniyaning ish unumdarligi $M = 12,5$ t/soat bo'lganda: $T_1 = T \cdot M = 10 \cdot 12,5 = 125 \text{ kg/soat.}$ (1.11)

Yog' chiqindilari va yo'qotishlari

Filtrda siqishdan oldin ishlatilgan oqlovchi tuproqning oqartiriladigan yog' massasiga nisbatan miqdori:

$$To = T \cdot 100 / (100 - g_1) = 10 \cdot 100 / (100 - 40) = 16,67 \text{ kg/t.} \quad (1.12)$$

Filtrda siqib olinadigan texnik yog' miqdori:

$$G = T [1 - (100 - g_1) / (100 - g_2)] = 166,7 [1 - (100 - 40) / (100 - 15)] = 4,9 \text{ kg/t.} \quad (1.13)$$

Ishlatilgan oqlovchi tuproqdagagi yog' miqdori:

$$G' = [T \cdot 100 / (100 - g_2)] - T = [10 \cdot 100 / (100 - 15)] - 10 = 1,77 \text{ kg/t.} \quad (1.14)$$

Mavjud me'yoriy hujjatlar bo'yicha oqlash jarayonida qaytmas yo'qotishlar:

$$P_0 = 0,033\% = 0,33 \text{ kg/t.}$$

Jami chiqindilar va yo'qotishlar:

$$\sum O = 4,9 + 1,77 + 0,33 = 7 \text{ kg/t.}$$

Oqartirilgan yog' chiqishi:

$$A_p = 1000 - 7 = 993 \text{ kg/t.}$$

1.3 -jadval

Oqlash jarayonining moddiy balansi

Komponentlar	1 t uchun, kg	Bir sutkada, t	bir oyda (29 kun), t	Yiliga (318 kun), ming t
Oqartirishga berilgan yog'	1000,0	300,0	8700	95,4
Oqartirilgan yog'ning chiqishi	993,0	297,9	8639,1	94,74
Oqartirishda yog' chiqindilari: Shu jumladan: texnik yog': oqlovchi tuproqdagi yog':	6,67 4,9 1,77	2,0 1,47 0,53	58,0 42,63 15,37	0,636 0,467 0,169
Qaytmas yo'qotishlar	0,33	0,1	2,9	0,032
Ishlatilgan oqlovchi tuproqning chiqishi	11,77	3,53	102,37	1,122

1 t oqartirilgan yog' olish uchun sarflangan rafinatsiyalanadigan yog' miqdori:

$$B = 1000 \cdot 1000 / 993 = 1007 \text{ kg/t.}$$

Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan bug' va suv miqdorini hisoblash

Texnologik ehtiyojlar uchun sarflangan bug':

$$D = 70 \text{ kg}$$

shu jumladan bosimi 0,3 MPa bo'lgan bug':

$$D_1 = 60 \text{ kg};$$

bosimi 0,8 MPa bo'lgan bug' (filtrlarni tozalash uchun):

$$D_2 = 10 \text{ kg};$$

Sovutish uchun suv miqdori:

$$W = 2,2 \text{ m}^3.$$

Nazorat savollari:

1. Moylarni oqlash jarayonining mohiyati, moylardagi bo'yovchi moddalar.
2. Oqlovchi adsorbentlar turlari.
3. Oqlovchi adsorbentlarga qo'yiladigan talablar.
4. Moylarni oqlash usullari.
6. Moylarni oqlash jarayonida oqlovchi tuproqning miqdori.
7. Oqlash jarayonida yog' chiqindilari va yo'qtishlari.

Yog'larni dezodoratsiyalash

Kolonna tipidagi apparatlarda yog'larni dezodoratsiyalash jarayonining moddiy hisobi

Neytrallangan, oqlangan kungaboqar moyini dezodorasiyalash uchun dastlabki ma'lumotlar:

yog'ning boshlang'ich kislotaliligi (kislota soni 0,25 mg KOH),
 $Y_d = 0,0125\%$;

yog'ning oxirgi kislotaliligi (kislota soni 0,03 mg KOH),
 $Y_o = 0,015\%$;

apparatda glitseridlarning gidrolizi natijasida hosil bo'lgan yog' kislotalari massasi:

$$Y_g = 0,03\%.$$

Ushbu ma'lumotlar asosida dezodoratsiya jarayonida haydalgan erkin yog' kislotalar massasi aniqlanadi:

$$Y_u = Y_d - Y_o + Y_g = 0,125 - 0,015 + 0,03 = 0,14\% = 1,4 \text{ kg/t.}$$

Dezodoratsiya jarayonida haydalgan hid beruvchi moddalar yog' turi va sifatiga bog'liq. Sifatli kungaboqar yog'i uchun haydalgan hid beruvchi moddalar massasi $Y_o = 250 \text{ mg/kg} = 0,25 \text{ kg/t}$ tashkil etadi.

Dezodoratsiya apparatidan yog' kislotalari va hid beruvchi moddalar bilan birga o'tkir bug' o'zi bilan neytral yog'ni ham olib ketadi. Uning miqdori ochiq bug' massasidan 0,001% tashkil etadi.

Kungabooqar yog'ini dezodoratsiyalashda bug' sarfi $D_o = 50 \text{ kg/t}$ teng bo'lganda, olib ketilgan neytral yog' massasi:

$$Y_n = D_o \cdot 0,001 = 50 \cdot 0,001 = 0,05\% = 0,5 \text{ kg/t.}$$

Dezodoratsiya jarayonida yog' tarkibidan chiqib ketgan yog'li chiqindilarning umumiy miqdori:

$$\sum Y = Y_u + Y_o + Y_n = 1,4 + 0,25 + 0,5 = 2,15 \text{ kg/t.}$$

Dezodoratsiya kolonnaning unumadorligi $M = 6,25 \text{ t/soat}$ bo'lganda olib ketilgan yog' komponentlarning miqdori:

$$P = \sum Y \cdot M = 2,15 \cdot 6,25 = 13,4 \text{ kg/soat.}$$

Skrubberda dezodoratsiya kolonnasidan chiqadigan bug'-gaz aralashmasi sovutiladi va yog'li chiqindilarning ko'p qismi absorbent bilan o'zaro bog'lanib sug'oradigan yog'ga shimaladi. Bug'-gaz aralashmasining bir qismi vakuum-nasosning birinchi bosqich ejektori orqali skruberdan suv kondensatoriga yuboriladi.

Ejektor olib ketgan yog' kislotalari miqdori:

$$g_k = D_o \cdot m_k \cdot \rho_k / [m_s (\rho - \rho_k)] = 50 \cdot 288 \cdot 0,5 / [18(1066 - 0,5)] = 0,3 \text{ kg/t, (1.15)}$$

bu yerda: m_k - eng uchuvchan yog' kislotalarning molekulyar massasi (kokos va palma yog'laridan tashqari barcha o'simlik yog'ları uchun miristik kislotsasi bo'yicha belgilanadi), $m_k = 228$;

m_s - suvning molekulyar massasi, $m_s = 18$;

ρ - skrubberning yuqori qismidagi bosim, $\rho = 1066 \text{ Pa}$;

ρ_k - skrubberning yuqori qismida 80°C harorardagi miristik kislota bug'ining partsial bosimi, $\rho_k = 0,5 \text{ Pa}$.

Amaldagi ma'lumotlarga ko'ra, bug'-gaz aralashmasi bilan kondensatorga mexanik ravishda olib ketilgan hid beruvchi moddalar va neytral yog'lar miqdori yog' kislotalari massasidan 50% tashkil etadi.

$$Z = g_k \cdot 0,5 = 0,3 \cdot 0,5 = 0,15 \text{ kg/t.}$$

Bug' ejektorli vakuum-nasosi kondensatorlariga olib ketilgan yog' komponentlarning umumiy miqdori:

$$Z_k = g_k + Z = 0,3 + 0,15 = 0,45 \text{ kg/t.}$$

Bir soatda:

$$Z_s = Z_k m = 0,45 \cdot 6,25 = 2,8 \text{ kg/soat.}$$

Skrubber yog'ida sorbtsiyalangan yog' komponentlar miqdori:

$$K = P - Z_s = 13,4 - 2,8 = 10,6 \text{ kg/soat.}$$

1.4-jadval

Kungaboqar moyini dezodoratsiyalash jarayonida skruberdag'i komponentlarning balansi

Komponent lar	Skrubberga tushgan			Skrubberdan chiqib ketgan			Skrubber absorberida yutilgan		
	1 t yog' uchun, kg	1 apparat uchun, kg/soat	%	1 t yog' uchun, kg	1 apparat uchun, kg/soat	%	1 t yog' uchun, kg	1 apparat uchun, kg/soat	%
Jami	2,15	13,4	100,0	0,45	2,8	100,0	1,7	10,6	100,0
Shu jumladan: yog' kislotalari	1,4	8,75	65,3	0,3	1,9	67,9	1,1	6,85	64,6
hid beruvchi moddlar	0,25	1,55	11,6	0,15	0,9	32,1	0,6	3,75	35,4
neytral yog'	0,5	3,11	23,1						

Skrubberda gaz fazadagi yog' chiqindilari sovitilgan sirkulyatsion absorbent (yog') bilan absorbtсиyalanadi. Bu yog'ning massasi $G_m = 600 \text{ kg}$.

Asta sekin yog' erkin yog' kislotalari va neytral mahsulotlar bilan to'yinadi va uni vaqt-vaqt bilan yangisi bilan almashtiriladi. Absorbent har 3 sutkada yangilanadi. Bu vaqt mobaynida sirkulyatsion yog'da quyidagi komponentlar yig'iladi:

Barcha komponentlar $G_k = 10,6 \cdot 24 \cdot 3 = 763 \text{ kg}$

Shundan:

erkin yog' kislotalari $G_{yo.k} = 6,85 \cdot 24 \cdot 3 = 493 \text{ kg}$

neytral yog‘ mahsulotlari (hid beruvchi moddalar va neytral yog‘) ... $G_{nm} = 3,75 \cdot 24 \cdot 3 = 270 \text{ kg}$
 Uchinchi kun oxirida sirkulyatsion absorbent (yog‘) va shimilgan komponentlarning umumiy miqdori:

$$O = G_m + G_k = 600 + 763 = 1363 \text{ kg.}$$

Sirkulyatsion aralashma tarkibida erkin yog‘ kislotalar kontsentratasiysi:

$$\alpha = G_{yok} \cdot 100 / O = 493 \cdot 100 / 1363 = 36,2\%.$$

Skrubberda yog‘ komponentlarni yutish uchun absorbent (o‘simgilik yog‘i)ning solishtirma sarfi (1 t dezodoratsiyalangan yog‘ uchun):

$$z = G_{yok} / (150 \cdot 3) = 600 / (150 \cdot 3) = 1,33 \text{ kg/t}$$

O‘matilgan rejimda bir sutkada skrubberdan $G_{st} = O : 3 = 1363 : 3 = 455 \text{ kg}$ kondensatsiyalangan chiqindi va absorbent aralashmasi chiqadi va 200 kg yangi yog‘ beriladi.

Hosil bo‘lgan chiqindi va yo‘qotishlarni hisobga olgan holda dezodoratsiyalangan kungaboqar yog‘ning chiqishi, kg/t:

dezodoratsiyalangan yog‘ - 997,85;

dezodoratsiyadagi chiqindilar - 1,7;

qaytmas yo‘qotishlar - 0,45.

Dezodoratsiyada yog‘ chiqindilarning umumiy miqdori skrubberda aylanayotgan va texnik maqsadda ishlatalidigan yog‘lar hisobiga oshadi:

$$g_0 = z + 1,7 = 1,33 + 1,77 = 3,03 \approx 3 \text{ kg/t.}$$

Bir tonna dezodoratsiyalangan yog‘ olish uchun sarflangan rafinatsiyalangan, oqlangan kungaboqar yog‘ miqdori:

$$B = 1000 \cdot 1000 / 997,85 = 1002,15 \text{ kg.}$$

Skrubberda aylanayotgan yog‘ni hisobga olgan holda 1t dezodoratsiyalangan yog‘ olish uchun rafinatsiyalangan, oqlangan kungaboqar yog‘ning sarfi:

$$B_1 = 1000 \cdot 1000 / (997,85 - 1,33) = 1003,5 \text{ kg.}$$

Unumdorligi $M = 300 \text{ t/sut}$ bo‘lgan rafinatsiya sexida hosil bo‘lgan texnik yog‘(absorbent)ning miqdori:

$$g_a = g_0 M = 3 \cdot 300 = 900 \text{ kg/sut.}$$

Ushbu chiqindilardan samarali foydalanish dolzarb muammodir.

Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan bug' va suv miqdorini hisoblash

Bug' sarfi

1. Bug' ejektorli nasosning ishchi bug' ($P=0,78 \text{ MPa}$) sarfi:

$$D_1 = 207 \text{ kg};$$

2. Dezodoratsiya jarayonida sarflangan bug' ($P=0,78 \text{ MPa}$):

$$D_2 = 48 \text{ kg};$$

3. Quvurlarni isitish va tozalash uchun sarflangan bug' ($P=0,3 \text{ MPa}$):

$$D_3 = 20 \text{ kg};$$

4. Qushimcha sarflar (umumiylaridan 10%):

$$D_4 = (D_1 + D_2 + D_3) \cdot 0,1 = 27,5 \text{ kg};$$

Bug'ning umumiylaridan 10%:

$$D_u = D_1 + D_2 + D_3 + D_4 = 302,5 \text{ kg}.$$

Suv sarfi

1. Bug' -ejektorli vakuum-nasosning kondensatorlarini sovutish uchun sarflanadigan suv miqdori:

$$W_1 = 30,0 \text{ m}^3;$$

2. Dezodoratsiyalangan yog'ni sovutish uchun sarflanadigan suv miqdori:

sovutish suvning dastlabki harorati $t_d = 27^\circ\text{C}$, oxirgi harorati

$$t_0 = 37^\circ\text{C};$$

yog'ning dastlabki harorati $t_{sd} = 77^\circ\text{C}$, oxirgi harorati $t_{s0} = 40^\circ\text{C}$,

yog'ning solishtirma issiqlik sig'imi $c = 1,95 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$;

$$W_2 = 1000 \cdot 1,95(77 - 40)/(37 - 27)4,19 \cdot 1000 = 1,72 \text{ m}^3;$$

3. Skrubberda aylanayotgan kungaboqar moyini sovutish uchun sarflanadigan suv miqdori:

$$W_3 = 0,86 \text{ m}^3;$$

4. Qushimcha sarflar (umumiylaridan 10%):

$$W_4 = (W_1 + W_2 + W_3) \cdot 0,1 = 3,3 \text{ m}^3;$$

Suvning 1 t moy uchun umumiy sarf miqdori:

$$W_s = W_1 + W_2 + W_3 + W_4 = 35,9 \text{ m}^3$$

Nazorat savollari:

1. Moylarni dezodoratsiya jarayonining maqsadi.
2. O'simlik moylaridagi hid va ta'm beruvchi moddalar turlari va miqdori.
3. Dezodoratsiya jarayonining parametrlari.
4. Hidsizlantirish (dezodoratsiya)ning samaradorligi nimalarga bog'liq bo'ladi?
5. Dezodoratsiya jarayonidagi yog' yo'qotishlari va chiqindilari.

YOG'LARNI DAVRIY USULDA KOMPLEKS RAFINATSIYALASHNING MODDIY HISOBI

Moddiy hisoblarda rafinatsiyalangan yog'ning chiqishi, chiqindi va yo'qotishlar miqdori va qo'llaniladigan reaktivlar sarfi aniqlanadi. Bu hisoblar ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha bajariladi.

Yog'larni davriy usulda ishqorli rafinatsiyalash Ishqorli rafinatsiyadagi yog' chiqindilari va yo'qotishlari

Ishqorli rafinatsiyada yog' chiqindilari bir qism yog'ning soapstokka o'tishi va yuviladigan suv bilan olib ketilishi hisobiga hosil bo'ladi.

Soapstokdag'i yog' chiqindilari. Ushbu bosqichda yog' chiqindilari rafinatsiyalanayotgan yog' tarkibidagi erkin yog' kislotalarni neytrallash uchun sarflanadigan natriy gidroksid miqdoriga proportsional bo'ladi.

Yog'larni davriy usulda kompleks rafinatsiyalashning moddiy hisobi kokos yog'i misolida ko'rib chiqiladi.

Kokos yog'ini (boshlang'ich kislota soni $Ks_n=4$ mg KOH) ishqorli neytrallash uchun NaOH sarfi (ortiqcha koeffitsienti $\gamma=1,1$ bo'lganda):

$$I_n = K_s \cdot 0,713\gamma = 4 \cdot 0,713 \cdot 1,1 = 3,14 \text{ kg/t.}$$

NaOH bilan bog'langan yog' kislotalari massasi:

$$G_{yo,k} = I_n M_{yo,k} / M_i = 3,14 \cdot 200 / 40 = 15,7 \text{ kg/t.}$$

bu erda $M_{yo,k}$ - yog' kislotalarning o'rtacha molekulyar massasi (kokos yog'i uchun $M_{yo,k}=200$).

Rafinatsiya jarayoni davriy usulda olib borilganda soapstokdagi neytral yog' miqdori o'rtacha 40% tashkil etadi.

Soapstokka o'tadigan yog'lar massasi:

$$G'_{yo,s} = G'_{yo,k} \cdot 100 / (100 - 40) = 15,7 \cdot 100 / (100 - 40) = 26,2 \text{ kg/t.}$$

Shundan neytral yog' miqdori:

$$Yo_n = G'_{yo,k} - G'_{yo,s} = 26,2 - 15,7 = 10,5 \text{ kg/t.}$$

Ishqor bilan rafinatsiya qilingan va tindirilgan yog'da o'rtacha $g_m = 0,15\% = 1,5 \text{ kg/t}$ miqdorda yog' kislotalari (natriy tuzi ko'rinishida) qoladi.

Demak, soapstokdagi yog' chiqindilari quyidagi miqdorda bo'ladi:

$$G''_{yo,s} = G''_{yo,k} - g_m = 26,2 - 1,5 = 24,7 \text{ kg/t.}$$

Neytralizatordan chiqarib olingan soapstok tarkibida yog'lar (sovun va neytral yog' holatda) miqdori $Yo_{um} = 30\%$ bo'lganda uning massasi:

$$G_o = G'_{yo,k} \cdot 100 / Yo_{um} = 24,7 \cdot 100 / 30 = 82,3 \text{ kg/t.}$$

Yuvishdagi yog' chiqindilari. Yuvish jarayonida yog' tarkibidan taxminan 95%sovun suv bilan yuviladi. Suvga o'tgan Sovun miqdori:

$$G'_m = g_m \cdot 95 / 100 = 1,5 \cdot 95 / 100 = 1,43 \text{ kg/t.}$$

Sovun bilan birga suvga o'rtacha ikki marta ko'p neytral yog' o'tadi,

Suv bilan ajratilgan yog' massasi:

$$U = G'_m \cdot 3 = 1,43 \cdot 3 = 4,3 \text{ kg/t,}$$

shundan neytral yog' massasi:

$$Yo_n = G'_m \cdot 2 = 2,86 \text{ kg/t.}$$

Yuvish jarayonida suv bilan olib ketilgan neytral yog'ning taxminan 50% i sexdag'i yog' tutgichda ushlab qolinadi va jarayonga qaytariladi. Sexdag'i yog' tutgichda yuboriladigan suv tarkibidagi yog'lar miqdori:

$$U' = U - Yo_n \cdot 0,5 = 4,3 - 2,86 \cdot 0,5 = 2,87 \text{ kg/t.}$$

Sexdag'i yog' tutgichda tushgan umumiy yog' miqdoridan 60% gacha ushlab qolinadi. Ushlab qoligan yog'lar massasi:

$$U'' = U' \cdot 0,6 - 2,87 \cdot 0,6 = 1,72 \text{ kg/t.}$$

Ushbu chiqindi yog'lar texnik maqsadda ishlataladi.

Ishqorli netrallahning davriy usulida boshqa chiqindilar miqdorini $\varphi = 0,2 \text{ kg/t}$ teng deb qabul qilinadi.

Ishqorli neytrallahda umumiy chiqindilar miqdori:

$$\sum O = G_{\text{yog}} + U' + \varphi = 24,7 + 1,72 + 0,2 = 26,62 \text{ kg/t.}$$

Ishqorli neytrallahda yog' yo'qotishlari yog' ni yuvish va quritisha suv bilan olib ketilgan yo'qotishlar va boshqalardan iborat bo'ladi.

Yog'ni yuvish suvlardagi yo'qotishlar sexning yog' tutgichdan suv bilan ketadigan yog'lar massasi $U' = 2,87 \text{ kg/t}$ va korxonaning yog' tutgichda ushlab qolningan yog' massasining $U'' = 1,72 \text{ kg/t}$ ayirmasi bo'yicha aniqlanadi:

$$\psi_1 = 2,87 - 1,72 = 1,15 \text{ kg/t.}$$

Quritishdagi yo'qotishlar rafinatsiyaga kelayotgan va vakuum-quritish apparatdan chiqayotgan yog'lar tarkibidagi namlik va uchuvchan moddalarning farqi bo'yicha aniqlanadi ($x_1 = 0,15\% = 1,5 \text{ kg/t}$ va $x_2 = 0,02\% = 0,2 \text{ kg/t}$):

$$\psi_2 = 1,5 - 0,2 = 1,3 \text{ kg/t.}$$

Boshqa hisobga olinmagan yo'qotishlar amaliy ma'lumotlarga ko'ra $\psi_3 = 0,02\% = 0,2 \text{ kg/t}$ deb qabul qilinadi.

Ishqorli neytrallah jarayonining umumiy yo'qotishlari:

$$\sum \psi = \psi_1 + \psi_2 + \psi_3 = 1,15 + 1,3 + 0,2 = 2,65 \text{ kg/t.}$$

Yuvish va quritishni hisobga olgan holda ishqorli neytrallahda umumiy chiqindilar va yo'qotishlar:

$$\sum O + \sum \psi = 26,62 + 2,65 = 29,27 \text{ kg/t.}$$

Rafinatsiyalangan yog'ning chiqishi:

$$Ar = 1000 - (\sum O + \sum \psi) = 1000 - 29,27 = 970,73 \text{ kg/t.}$$

Davriy usulda 1 t rafinatsiyalangan kokos yog' olish uchun boshlang'ich kislota soni 4 mg KOH bo'lgan kokos yog'ining sarfi:

$$B = 1000 \cdot 1000 / Ar = 1000 \cdot 1000 / 970,73 = 1030,15 \text{ kg.}$$

Yog‘larni davriy usulda oqlash

Yog‘larni oqartirish jarayonida chiqindilar va yo‘qotishlar

Rafinatsiyaning bu bosqichida yog‘ chiqindilari oqartiruvchi tuproq bilan yog‘ni yutilishi hisobidan hosil bo‘ladi. Yo‘qotishlar asosan yog‘ni filtrlash jarayonida, shuningdek filtrlovchi salfetkalarning moy shimishi hisobiga hosil bo‘ladi.

Hisoblar uchun quyidagi ma’lumotlar qabul qilinadi: kokos yog‘ini rafinatsiyalashda oqlovci tuproqning sarfi $T = 0,5\% = 5 \text{ kg/t}$; filtr-pressdan olingan ishlatalgan oqlovchi tuproqning moy sig‘imi o‘rtacha $g_1 = 30\%$; me’yoriy hujjatlar bo‘yicha filtrlovchi mato sarfi $F = 0,2 \text{ kg/t}$, yechib olinadigan salfetkalardagi yog‘ miqdori $g = 45\%$.

Ishlatilgan oqlovchi tuproq tarkibida yog‘ chiqindilari

Filtr-pressdan olingan ishlatalgan oqlovchi tuproqning massasi:

$$T_i = T \cdot 100 / (100 - g_1) = 5 \cdot 100 / (100 - 30) = 7,14 \text{ kg/t}.$$

Ishlatilgan oqlovchi tuproqning tarkibida yog‘ miqdori:

$$G = T_i - T = 7,14 - 5 = 2,14 \text{ kg/t}.$$

Oqlovchi tuproqning massasiga nisbatan yog‘ chiqindilari foizi:

$$G' = G \cdot 100 / T = 2,14 \cdot 100 / 5 = 42,8 \text{ \%}.$$

Salfetkalarga shimilgan yog‘ yo‘qotishlari. Filtr-pressdan olingan salfetkalarga shimilgan yog‘:

$$G'' = [F \cdot 100 / (100 - g)] - F = [0,2 \cdot 100 / (100 - 45)] - 0,2 = 0,16 \text{ kg/t}.$$

Filtr matosi yaroqsiz holatga kelguncha uch marta ishlatalidi, shuningdek ikki marta yuviladi. Bularni hisobga olgan holda, filtr mato bilan yog‘ yo‘qotishlari:

$$G''' = G'' \cdot 3 = 0,16 \cdot 3 = 0,48 \text{ kg/t}.$$

Oqlash va filtrlash jarayonida boshqa hisobga olinmagan yo‘qotishlar $0,02 \text{ kg/t}$ deb qabul qilinadi.

Oqlash bosqichidagi umumiy yo‘qotishlar miqdori:

$$\psi_4 = 0,5 \text{ kg/t}.$$

Kokos yog‘ini oqlash va filtrlash bosqichdagi umumiy chiqindilar va yo‘qotishlar:

$$\sum O_s = G + \psi_4 = 2,14 + 0,5 = 2,64 \text{ kg/t.}$$

Ishqor bilan neytrallangan, oqlangan va filtrlangan yog'ning chiqishi:

$$Ar = 1000 - \sum O_s = 1000 - 2,64 = 997,36 \text{ kg/t.}$$

It oqlangan va filtrlangan yog' olish uchun ishqor bilan neytrallangan yog'ning sarfi:

$$B = 1000 \cdot 1000 / Ar = 1000 \cdot 1000 / 997,36 = 1002,65 \text{ kg.}$$

Yog'larni davriy usulda hidsizlantirish

Yog'larni hidsizlantirish jarayonidagi chiqindilar va yo'qotish-lar.

Bu jarayonda yo'qotishlar bug'ejektorli vakuum nasosning yuzali kondensatorlarda yig'ilgan komponentlar hisobiga hosil bo'ladi. Kokos yog'i tarkibida past molekulalari yog' kislotalarning uchatsilglitseridlari ko'p bo'lganligi sababli bunday komponentlar miqdori boshqa yog'larga nisbatan yuqori bo'ladi. Hisoblar uchun $O_1 = 5 \text{ kg/t}$ deb qabul qilinadi.

Ulardan o'rtacha 80% texnik yog' sifatida ushlab qolinadi:

$$O_2 = O_1 \cdot 0,8 = 5 \cdot 0,8 = 4 \text{ kg/t.}$$

Kombinatsiyalangan yog' tutgichda yog'larni ajratilgandan so'ng tozalash sistemasiga yuboriladigan oqova suvlar tarkibidagi qaytmas yo'qotishlar:

$$\psi = O_1 \cdot 0,2 = 5 \cdot 0,2 = 1 \text{ kg/t.}$$

Dezodoratsiyaga yuboriladigan yog'dan hidsizlantirilgan kokos yog'ning chiqishi:

$$Ar = 1000 - O_1 = 1000 - 5 = 995 \text{ kg/t.}$$

It hidsizlantirilgan yog' olish uchun oqlangan yog' sarfi:

$$B = 1000 \cdot 1000 / Ar = 1000 \cdot 1000 / 995 = 1005,0 \text{ kg/t.}$$

1.5-jadvalda davriy apparatida oziq-ovqat maqsadida 25 t kokos yog'i rafinatsiyalash mahsulotlari balansi va sutkalik yuk aylanmasi keltirilgan.

Kokos yog'ni kompleks rafinatsiyalash jarayonining mahsulot balansi

Komponentlar	1 t rafinatsiyalangan gan yog'dan chiqishi, kg	1 t rafinatsiyalangan va dezodorat- siyalangan yog' uchun sarfi, kg	Bir sutkada mahsulot aylanishi
Kokos yog'i (boshlang'ich kislota soni $K_s = 4 \text{ mg KOH}$)	1000,0	1038,1	25,953
Ishqor bilan neytralizatsiyalangan, yuvilgan va quritilgan yog'	970,73	1030,15	26,754
Oqlangan yog'	968,09	1032,9	25,823
Dezodoratsiyalangan yog'	963,09	1038,1	25,953
Chiqindilar jami	32,76	33,85	0,846
shu jumladan ishqorli neytrallashda	26,62	27,64	0,691
oqlashda	2,14	2,21	0,055
dezodoratsiyada	4,0	4,0	0,100
Qaytmas yo'qotishlar	4,15	4,25	0,106

Qushimcha materiallar sarfi

Natriy gidroksid sarfi. Kokos yog'ni (boshlang'ich kislota soni 4 mg KOH) neytrallash uchun sarflanadigan natriy gidroksid (96% li) miqdori:

$$I_1 = I_t \cdot 100/96 = 3,14 \cdot 100/96 = 3,27 \text{ kg/t.}$$

Natriy gidroksid eritmasining (og'irlik bo'yicha kontsentrasiyasi $a = 0,609 \text{ kg/l}$ (42%), zichligi $\rho = 1,449 \text{ kg/l}$) sarfi:

$$g = I_1 \cdot \rho / a = 3,14 \cdot 1,449 / 0,609 = 7,47 \text{ kg/t.}$$

Kontsentrasiyasi $a_1 = 0,065 \text{ kg/kg}$, zichligi (20°C) $\rho_1 = 1,07 \text{ kg/l}$ bo'lgan natriy gidroksid ishchi eritmaning sarfi:

$$g_1 = 3,14 \cdot \rho_1 / a_1 = 3,14 \cdot 1,07 / 0,065 = 51,7 \text{ kg/t.}$$

Natriy xlorid sarfi. Ishqor bilan rafinatsiyalangan yog' kontsentrasiyasi 10%, massasi $W=100 \text{ kg}$ bo'lgan natriy xlorid eritmasi bilan yuviladi.

Natriy xlorid eritmaning sarfi:

$$g_{NaCl} = W \cdot 0,1 = 100 \cdot 0,1 = 10 \text{ kg/t.}$$

Limon kislotasi sarfi. Kristall limon kislotasi sarfi $0,02 \text{ kg/t}$ teng deb qabul qilinadi.

Moylarni davriy usulda rafinatsiyalash jarayonida bug‘ va suv sarfini hisoblash

Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan bug‘ miqdorini hisoblash

1. Neytrallahsdan oldin moyni $t_1 = 40^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 70^\circ\text{C}$ cha yopiq bug‘ bilan isitish:

$$D_1 = mc(t_2 - t_1)\eta / i_b = 1000 \cdot 1,85(70 - 40)1,05/1959 = 30 \text{ kg}.$$

bu erda m- mahsulot miqdori, kg, m = 1000 kg;

c -shu harorat oraliq‘ida moyning solishtirma issiqlik sig‘imi, kokos moyi uchun $c = 1,85 \text{ kj/kg} \cdot \text{K}$;

η -bug‘ yo‘qotishlarni hisobga olish koeffitsienti, $\eta = 1,05$.

i_b - yopiq suv bug‘ining foydali issiqlik berishi, kj/kg .

2. Yuvishtdan oldin moyni $t_1 = 50^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 95^\circ\text{C}$ cha yopiq bug‘ bilan isitish:

$$D_2 = mc(t_2 - t_1)\eta / i_b = 1000 \cdot 1,98(95 - 50)1,05/1959 = 48 \text{ kg},$$

bu erda c -shu harorat oraliq‘ida moyning solishtirma issiqlik sig‘imi $c = 1,98 \text{ kj/kg} \cdot \text{K}$;

3. Moyni 1% namlikdan 0,1% cha quritish uchun sarflangan bug‘ miqdori:

$$D_3 = 1000(0,01 - 0,001)2677 \cdot 1,05/1959 = 13 \text{ kg},$$

bu erda $i_{ib} = 2677 \text{ kj/kg} \cdot \text{K}$ -ikkilamchi bug‘ entalpiyasi.

4. Moyni yuvish uchun ishlataladigan suvni $t_1 = 50^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 90^\circ\text{C}$ cha o‘tkir bug‘ bilan isitish:

$$D_4 = Wc(t_2 - t_1)\eta / i_0 = [300 \cdot 4,19(90 - 50)1,05] / 2244 = 24 \text{ kg},$$

bu erda $i_0 = 2244$ - o‘tkir bug‘ning foydali entalpiyasi, kj/kg .

$W = 3000 \text{ kg/t}$.

5. Oqlash apparatida moyni $t_1 = 80^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 95^\circ\text{C}$ cha yopiq bug‘ bilan isitish:

$$D_5 = 1000 \cdot 2,06(95 - 80) \cdot 1,05 / 1959 = 17 \text{ kg},$$

bu erda c –shu harorat oralig‘ida moyning solishtirma issiqlik sig‘imi, $c = 2,06 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$;

6. Dezodoratsiyalashdan oldin moyni $t_1 = 130^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 200^\circ\text{C}$ cha yopiq bug‘ bilan isitish, $P=2,2 \text{ MPa}$:

$$D_6 = 1000 \cdot 2,32(200 - 130)1,05 / 1691 = 101 \text{ kg}.$$

$$\text{bu erda } i_0 = 1691 \text{ kJ/kg}.$$

7. Moyni dezodoratsiyalash uchun o‘tkir bug‘ sarfi (me’yoriy hujjatlар asosida):

$$D_7 = 96 \text{ kg},$$

8. Me’yoriy hujjatlarga ko‘ra bug‘ejektorli vakuum-nasosda ishchi bug‘ning sarfi:

$$D_8 = 725 \text{ kg}$$

9. Qushimcha sarflar (umumiylar sarfdan 10%):

$$D_9 = (D_1 + D_2 + \dots + D_8) \cdot 0,1 = 105,4 \text{ kg}$$

Bug‘ning 1 t moy uchun umumiylar sarf miqdori:

$$D_u = (D_1 + D_2 + \dots + D_9) = 1159,4 \text{ kg}.$$

Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan suv miqdorini hisoblash

1. Rafinatsiya uchun ishlataladigan natriy gidroksid eritmasini suyultirish uchun sarflanadigan suv miqdori (yuqoridagi hisoblar bo‘yicha):

$$W_1 = (g_1 - g) / 1000 = (51,7 - 7,47) / 1000 = 0,05 \text{ m}^3;$$

2. Rafinatsiyalangan moyni yuvish uchun:

$$W_2 = 0,3 \text{ m}^3;$$

3. Bug‘ejektorli vakuum-nasosning kondensatorlarini sovitish uchun sarflanadigan suv miqdori:

$$W_3 = 75,0 \text{ m}^3,$$

4. Kondensatorda suv bug‘larini kondensatsiyalash uchun sarflanadigan suv miqdori:

$$W_4 = 0,74 \text{ m}^3;$$

5. Dezodoratsiyalangan moyni sovtgichda sovitish uchun:

$$W_5 = 3,36 \text{ m}^3;$$

6. Vakuum-nasos silindirini sovutish uchun:

$$W_6 = 0,1 \text{ m}^3;$$

7. Qushimcha sarflar (umumiy sarfdan 10%):

$$W_7 = (W_1 + W_2 + \dots + W_6) \cdot 0,1 = 8,0 \text{ m}^3;$$

Suvning 1 t moy uchun umumiy sarf miqdori:

$$W_u = W_1 + W_2 + \dots + W_7 = 87,6 \text{ m}^3.$$

Masala. Sutkada 80 t paxta moyini uzluksiz usulda rafinatsiyalash jarayonining moddiy hisobini bajaring. Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar:

xom paxta yog'ining kislota soni, $K_s = 6 \text{ mg KOH}$;

ishqor miqdorining ortiqcha koefitsiyenti $\gamma = 2$ yoki nazariy sarf miqdoridan 100% ko'p;

o'yuvchi ishqor eritmasining boshlang'ich kontsentrasiyasi, $a = 0,609 \text{ kg/l}$, zichligi $\rho = 1,449 \text{ kg/l}$;

o'yuvchi ishqor eritmasining ishchi kontsentrasiyasi, $a = 0,201 \text{ kg/l}$, zichligi $\rho = 1,19 \text{ kg/l}$;

namlik va uchuvchan moddalar miqdori $x_1 = 0,2\%$;

quritilgan yog'ning namligi $x_2 = 0,05\%$;

oqartiruvchi tuproq miqdori, yog' massasiga nisbatan 2% yoki $T = 20 \text{ kg/t}$;

siqishdan oldin oqartiruvchi tuproq tarkibidagi yog' miqdori $g_1 = 40\%$;

siqishdan keyin oqartiruvchi tuproq tarkibidagi yog' miqdori $g_2 = 15\%$;

yog'ning boshlang'ich kislotaliligi (kislota soni 0,25 mg KOH),

$Y_s = 0,0125\%$;

yog'ning oxirgi kislotaliligi (kislota soni 0,03 mg KOH), $Y_s = 0,015\%$;

apparatda glitseridlarning gidrolizi natijasida hosil bo'lgan yog' kislotalari massasi:

$$Y_g = 0,003\%.$$

II. O'SIMLIK MOYLARINI GIDROGENLASHNING MODDIY HISOBI

Yog'arni gidrogenlash jarayoni vodorod va katalizator ishtirokida borib salomas hosil bo'ladi.

Gidrogenlash jarayonining moddiy hisoblarida salomas ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan dastlabki yog'lar, vodorod va katalizatorning yog'li suspenziysi miqdorlari aniqlanadi.

Gidrogenlash jarayonining moddiy hisobi quyidagi tartibda bajariladi.

Hisoblar kungaboqar moyi uchun olib boriladi. Boshqa turdag'i moylar yoki moy va hayvon yog' aralashmalarini gidrogenlash jarayoni uchun hisoblash tartibi o'zgarmaydi.

Gidrogenlash jarayonida xom ashyo va materiallar sarfining hisobi 1 t dastlabki yog'ga nisbatan olib boriladi va keyinchalik 1t salomasga nisbatan qayta hisoblanadi.

Vodorod sarfini aniqlash

It uchatsilglitseridlarni to'yintirish uchun vodorodning (kg) nazariy sarfi:

$$g = [10(J_1 - J_2)]/126,9 \quad (2.1)$$

Normal sharoitda ($P=0,1$ MPa, harorat 0°C bo'lganda) 1 t uchatsilglitserid uchun quruq vodorod sarfi quyidagi tenglama bo'yicha topiladi:

$$V_g = [10(J_1 - J_2)]/(126,9 \cdot 0,0898) = (J_1 - J_2)/1,14 \text{ nm}^3 \quad (2.2)$$

bu erda J_1 va J_2 dastlabki yog'ning va olingan salomasning yod soni;
126,9 - yodning molekulyar massasi;

0,0898 - normal sharoitda vodorodning zichligi, kg/nm³;

$$g = [10(135 - 72)]/126,9 = 4,96 \text{ kg.}$$

1 t yog'ning yod sonini bir songa kamaytirish uchun vodorod sarfi:

$$V_g = 1/1,14 = 0,878 \text{ nm}^3. \quad (2.3)$$

Vodorod sarfi gidrogenlashga kelayotgan yog'ning dastlabki yod soni va ishlab chiqarilgan salomasning oxirgi yod soniga bog'liq. Ba'zi bir o'simlik yog'lar va har xil turdag'i salomaslarning yod sonlari 2.1-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval

Yog' va salomaslarning yod sonlari (%J₂ hisobuda)

Mahsulot	Standart bo'yicha	Hisoblash uchun o'rtacha qiymati
Moy kungaboqar.....	125-146	135
paxta.....	101-116	109
soya.....	• 120-140	130
Yog' eritilgan mol.....	32-47	40
chuchqa.....	46-66	56
Salomas margarin mahsulotlari uchun 1-3 markali.....	62-82	72
texnik atir sovun uchun.....	65 cha	60
xo'jalik sovun uchun.....	55 cha	50
stearin uchun		
5-1 markali.....	2,5 cha	2
5-2 markali.....	17 cha	15

2.1- jadval asosida hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

dastlabki yog'ning yod soni $J_1 = 135 \%J_2$;

olingan salomasning yod soni $J_2 = 72 \%J_2$.

Kungaboqar moyidan oziqa salomas ishlab chiqarish uchun vodorodning nazariy sarfi:

$$g = [10(135 - 72)]/129,9 = 4,96 \text{ kg/t.}$$

Yoki

$$V_g = [10(135 - 72)]/(126,9 \cdot 0,0898) = (135 - 72) \cdot 1,14 = 55,3 \text{ nm}^3/\text{t.}$$

Ishlab chiqarish sharoitida gidrogenlashga sarflanadigan vodorod miqdori uning harorati, bosimi va namligiga bo'liq. Shu sababli amalda vodorod sarfi nazariy hisoblangan miqdoridan biroz farq qiladi.

Bosim $p = 103,3 \text{ kPa}$, $T_k = 203 \text{ K}$, gazdagि suv bug'ining bosimi $p_1 = 2,3 \text{ kPa}$, vodorodning nisbiy namligi $\varphi = 0,85$ bo'lganda nam vodorodning sarfi:

$$V_n = V_q [(pT_k)/(p - p_1\varphi)T_o] = \\ = 55,3[(103300 \cdot 293)/[(103300 - 2300 \cdot 0,85)273]] = 60,5 \text{ m}^3/\text{t}$$
(2.4)

Vodorodning to‘liq sarfi aniqlanganda aylanma (sirkulyatsion) vodorod tarkibidan yig‘ilgan aralashmalarни ajratish uchun gaz quvurlarni tozalash va katalizator ishlab chiqarishga ketgan sarf miqdori ham hisobga olinadi.

Gidrogenlash sexida vodorod yo‘qotishlari (masalan, quvurlarni tozalash uchun) quyidagi koefitsient bilan hisobga olinadi $\psi = 1,05$.

Kungaboqar yog‘idan oziqa salomas ishlab chiqarish uchun nam elektrolitik vodorod sarfi:

$$V_{un} = V_n \psi = 60,5 \cdot 1,05 = 63,5 \text{ m}^3/\text{t}.$$

Vodorod hajmi harorat va bosim o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Vodorod hajmini qayta hisoblash uchun quyidagi koefitsientlardan foydalanish mumkin:

Gaz harorati	Qayta hisoblash koefitsienti	Gaz harorati	Qayta hisoblash koefitsienti
0	1	25	0,916
5	0,982	30	0,901
10	0,965	35	0,886
15	0,948	40	0,872
20	0,932		

Qayta hisoblash koefitsienti quyidagi nisbatdan aniqlanadi:

$$\alpha_y = V_{un} / V_q = 63,5 / 55,3 = 1,148.$$
(2.5)

Katalizator sarfini aniqlash

Ishlab chiqarish korxonalarda yog‘larni gidrogenlash jarayonida 20% yangi tayyorlangan va 80% ishlataligan (aylanma) katalizator aralashmasidan foydalaniladi.

Texnologik reglament bo‘yicha margarin mahsulotlari uchun salomas ishlab chiqarishda nikel-kizelgur katalizatorning sarfi $2 \pm 0,5 \text{ kg/t}$ (nikelga nisbatan) tashkil etadi.

Sarflanadigan katalizatori yaxshi harakatlanishi va me’yorlashni osonlashtirish uchun issiq rafinatsiyalangan yog‘ bilan aralashtiriladi.

Katalizator aralashmasida nikel kontsentratsiyasi o'rtacha 2% tashkil etadi.
Katalizator suspenziyaning sarf miqdori 100 kg/t teng.

2.2-jadval

Ishlatiladigan nikel-kizelgur katalizatorning tarkibi, %

Katalizator	yog'li suspenziya	Nikel-kizelgur			yog'li suspenziya	Nikel-mis			
		shu jumladan				shu jumladan			
		nikel	kizelgur	yog'		nikel	mis	kizelgur	
Sarflanadigan	100,0	2,0	2,0	96,0	100,0	2,0	0,67	2,67	94,66
Shu jumladan yangi.....	10,0	0,2	0,2	9,6	15,0	0,3	0,1	0,4	14,2
aylanma....	90,0	1,8	1,8	86,4	85,0	1,7	0,57	2,27	80,46

Kataliator yo'qotishlari va chiqindilari (nikel-qizelgur). Katalizator yo'qotishlari quyidagi bosqichlarda hosil bo'ladi:

-tayyor salomas bilan ikki marta filtrlash natijada, tayyor mahsulotdagi nikel qoldig'i (yog' kislotalarning nikel sovunlari bilan birga) 5 mg/kg dan ko'p emas:

$$\varphi_k^1 = 0,005 \text{ kg/t};$$

-mexanik filtrlarning filtrlovchi yuzaning regenerasiyasida (yuvish, tozalash): amaliy ma'lumotlarga ko'ra: $\varphi_k^2 = 0,015 \text{ kg/t}$;

-ishlatilgan filtr mato bilan (filtr matoning sarfi $0,15 \text{ m}^2/\text{t}$ dan oshmasligi kerak); BNIIJ ma'lumotlariga ko'ra ishlatilgan filtr matoda nikel miqdori o'rtacha 80 g/m^2 bo'ladi. Filtr matoda katalizator yo'qotishlari: $\varphi_k^3 = 0,080 \cdot 0,15 = 0,012 \text{ kg/t}$;

-boshqa hisobga olinmagan yo'qotishlar: $\varphi_k^4 = 0,008 \text{ kg/t}$.

Gidrogenlash jarayonidagi katalizatorning umumiy yo'qotishlari:

$$\sum \varphi_k = 0,04 \text{ kg/t}.$$

Chiqindilar ishlatilgan katalizatorning bir qismi regeneratsiyaga yuborilganda hosil bo'ladi va yangi katalizatordagi nikel massasi bilan hisoblangan yo'qotishlar massasi ayirmasiga teng bo'ladi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra (2.2-jadval) yangi katalizatordagi nikel massasi: $g_{ya} = 0,20 \text{ kg/t}$.

Regeneratsiyaga yuboriladigan katalizatordagi nikel massasi:

$$g_r = g_{ya} - \sum \varphi_k = 0,20 - 0,04 = 0,16 \text{ kg/t.}$$

Avtoklav sexida kungaboqar yog'idan oziqa salomas ishlab chiqarish uchun nikel-kizelgur katalizatorning balansi

Avtoklavga beriladigan katalizator,	Katalizator chiqishi,
kg/t.....100,0	kg/t.....100,0
Shu jumladan	
yog'.....96,0	Salomasga o'tgan yog'91,11
nikel (met).....2,0	Ishlatilgan katalizator.....8,89
kizelgur.....2,0	

Filtrlash jarayonida ajratilgan katalizatordan foydalinish balansi

Filtrlash jarayonida ajratilgan katalizator-	Serflanadigan katalizator tayyorlash uchun
ning massasi, kg8,89	qaytarilgan katalizator massasi,
	kg.....8,0
Shu jumladan	Shu jumladan
yog'.....4,87	yog'.....4,4
nikel (met).....1,96	nikel (met).....1,8
kizelgur.....1,96	kizelgur.....1,8
	Regeneratsiyaga (yoki utilizatsiyaga)
	yuboriladigan katalizator massasi,
Jami.....8,89	kg.....0,71
	Shu jumladan
	yog'.....0,39
	nikel (met).....0,16
	kizelgur.....0,16
	katalizator yo'qotishlari.....0,18
	Jami.....8,89

Yog'lar sarfini aniqlash

To'yintirish jarayonida yog'lar massasi biriktirilgan vodorod massasiga nisbatan proportsional oshadi.

Chiqindilar aylanma (sirkulyatsion) vodorodni tozalash va katalizatori regeneratsiya qilish hisobidan hosil bo'ladi.

Yog' yo'qotishlari glitseridlar gidrolizi, salomasni filtrlashda - ishlatalgan katalizatorni ajratish uchun va boshqa hisobga olinmagan yo'qotishlar hisobidan hosil bo'ladi.

Gidroliz natijasida yo'qotishlar. Gidrogenlash jarayonida triatsilglitseridlar gidrolizi jadalligi avtoklavga yog'lar va vodorod bilan kiradigan namlik massasi, katalizator tarkibi va faolligiga bog'liq. Jarayon normal sharoitda - hidrogenlash harorati $200\text{--}220^{\circ}\text{C}$, davomiyligi 3 soatgacha, vodorod namligi $4\text{--}5 \text{ g/m}^3$, quritigan yog'ning namligi 0,1% dan yuqori bo'limganda olib borilsa gidrolizga uchragan yog' miqdori $3\text{--}3,5 \text{ kg/t}$ teng bo'ladi.

Hisoblar uchun kungaboqar yog'ini to'yintirish jarayonida gidrolizga uchragan yog' miqdori $y = 3,20 \text{ kg/t}$ teng deb qabul qilinadi.

Kungaboqar yog'i gidrolizida yog' kislotalari chiqishi gliseridlar massasidan 95,5 % ni tashkil qiladi, yoki:

$$h = y \cdot 95,5 / 100 = 3,2 \cdot 95,5 / 100 = 3,06 \text{ kg/t}.$$

Gidroliz natijasida yog' yo'qotishlari:

$$\varphi_1 = y - h = 3,2 - 3,06 = 0,14 \text{ kg/t}.$$

Aylanma (sirkulyatsion) vodorodni tozalash tizimidagi chiqindilar va yo'qotishlar. Gliseridlar gidrolizi natijasida hosil bo'lgan erkin yog' kislotalarning umumiy massasidan o'rtacha 20% i avtoklavdan chiqayotgan vodorod bilan birga vodorod tozalash tizimiga tushadi:

$$h_1 = 0,2h = 0,2 \cdot 3,06 = 0,61 \text{ kg/t}, \quad (2.6)$$

$$\text{yoki } h_2 = h_1 \cdot N = 0,61 \cdot 6,25 = 3,8 \text{ kg/soat}, \quad (2.7)$$

bu erda N- liniya (sex) unumdarligi, $N = 150 \text{ t/sut}$ yoki $6,25 \text{ t/soat}$.

Hosil bo'lgan yog' kislotalarning qolgan miqdori olinayotgan salomas tarkibida eriydi:

$$h_2 = h - h_1 = 3,06 - 0,61 = 2,45 \text{ kg/t}.$$

Buning natijasida, salomasdagagi erkin yog' kislotalari miqdori 0,25 % ga, kislota soni esa 0,5 mg KOH ga oshadi.

VNIJ ma'lumotlariga ko'ra, avtoklavdan chiqayotgan vodorod o'zi bilan o'rtacha $a = 24\text{--}25 \text{ g}$ yog'li moddalarni (1m^3 quruq vodorodga nisbatan) olib ketadi. Avtoklavlardan chiqayotgan vodorod hajmi $V_{ov} \approx 900$

m^3 /soat tashkil etadi, bu vodorod bilan olib ketilayotgan yog'li moddalar miqdori:

$$y_3 = a \cdot V_{or} = 24,5 \cdot 900 = 22050 \text{ g} \quad \text{yoki} \quad y_3 = 22 \text{ kg/soat.}$$

$$\text{Shu jumladan} \quad h_2 = 3,8 \text{ kg/soat; neytral yog'} \quad J_n = 18,2 \text{ kg/soat.}$$

It gidrogenlanadigan yog'dan olib ketiladigan yog'li moddalar miqdori:

$$y_s = 22 / 6,25 = 3,52 \text{ kg/t.}$$

Tomchi ajratgich va siklonda aylanma (sirkulyatsion) vodoroddan o'rtacha 90% yog'li moddalar ajratiladi:

$$O_1 = y_3 \cdot 0,9 = 22 \cdot 0,9 = 19,8 \text{ kg/soat} = 3,17 \text{ kg/t.}$$

Bu yog' qizil salomas deb nomlanadi va texnik maqsadlarda foydalaniлади.

Suvli skrubberga $3,52 - 3,17 = 0,35 \text{ kg/t}$ yoki $y_4 = 0,35 \cdot 6,25 = 2,2 \text{ kg/soat}$ yog'li moddalar o'tadi.

Suvli skrubberda taxminan 40% yoki $0,35 \cdot 0,4 = 0,14 \text{ kg/t}$ yog'li moddalar kondensatlanadi va yog' tutgichga suv bilan chiqib ketadi.

Yog' tutgichning foydali ish koeffitsienti 50% bo'lganda o'rtacha $O_2 = 0,14 \cdot 0,5 = 0,07 \text{ kg/t}$ past sifatli texnik yog' tutib qolinadi.

Qolgan yog'li yo'qotishlarga chiqayotgan vodorod bilan yo'qotishlar (shu jumladan ishqorli skrubberda natriy hidroksid eritmasi bilan bog'langan yog'li moddalar) kiradi.

Bu operasiyada jami yo'qotishlar:

$$\varphi_2 = 0,35 - 0,07 = 0,28 \text{ kg/t.}$$

Ishlatilgan katalizator bilan yog' yo'qotishlari. Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra:

$$\varphi_3 = 0,39 \text{ kg/t.}$$

Salomasni filtrlashda yog' yo'qotishlar miqdori filtr mato massasining o'rtacha 50% ni tashkil etadi. Mato sarfi $0,15 \text{ m}^2/\text{t}$ teng. Yo'qotishlar miqdori:

$$\varphi_4 = 0,15 \cdot 0,9 \cdot 0,5 = 0,067 \text{ kg/t,}$$

bu yerda: 0,9- filtr mato massasi, kg/m^2 .

Boshqa hisobga olinmagan yog' chiqindilari: $P_s = 0,023 \text{ kg/t}$.

Gidrogenlash jarayonida umumiy yog' yo'qotishlari:

$$\varphi_{um} = \varphi_1 + \dots + \varphi_5 = 0,14 + 0,28 + 0,39 + 0,067 + 0,023 = 0,9 \text{ kg/t}.$$

Gidrogenlash jarayonidagi umumiy yog' chiqindilari tomchi ajratgichda yig'ilgan qizil salomas $O_1 = 3,17 \text{ kg/t}$ va yog' tutgichda yig'ilgan texnik yog' $O_2 = 0,07 \text{ kg/t}$ hisobiga hosil bo'ladi.

Umumiy chiqindilar miqdori:

$$\sum O = O_1 + O_2 = 3,17 + 0,07 = 3,24 \text{ kg/t}.$$

Kungaboqar yog' idan oziqa salomas ishlab chiqarishda umumiy chiqindilar va yo'qotishlar:

$$u = \sum O + \varphi_{um} = 3,24 + 0,9 = 4,14 \text{ kg/t}.$$

Salomas chiqishi:

$$As = 1000 + g - u = 1000 + 4,96 - 4,14 = 1000,82 \text{ kg/t}.$$

bu erda g – birikkan vodorod massasi ($g=4,96 \text{ kg/t}$).

Margarin ishlab chiqarish uchun 1 t oziqa salomasga sarflangan kungaboqar yog'i:

$$B = 1000 \cdot 1000 / As = 1000 \cdot 1000 / 1000,82 = 999,18 \text{ kg/t}.$$

2.3-jadval

Kungaboqar yog' idan oziqaviy salomas ishlab chiqarishda mahsulot balansi

Komponentlar	Miqdori, kg/t		Komponentlar	Miqdori, kg/t	
	gidrogeniza-tsiyalana-digan yog'	olinayotgan salomas		gidrogeniza-tsiyalana-digan yog'	olinayotgan salomas
Kungaboqar yog'i	1000,0	999,18	Salomas	1000,82	1000
Shu jumladan avtoklavga beriladigan yog'			Chiqindilar va qaytmash yo'qotishlar.....	4,14	4,14

katalizator	tarkibida	904,0	903,18	Shu jumladan chiqindilar..... .. yo'qotishlar..... ..	3,24 0,9	3,24 0,9
yog'		96,0	96,0			
birikkan vodorod.....		4,96	4,96			
Jami		1004,96	1004,14	Jami	1004, 96	1004, 14

Moylarni gidrogenlash jarayonida bug' va suv sarfini hisoblash.
Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan bug' miqdorini
hisoblash (1t salomas uchun)

1.Uzluksiz liniyada gidrogenlashdan oldin moyni $t_1 = 70^\circ C$ dan $t_2 = 200^\circ C$ cha yopiq bug' ($P=3\text{ MPa}$) bilan isitish:

$$D_1 = mc(t_2 - t_1)\eta / i_b = 1000 \cdot 2,24(200 - 70)1,1/1620 = 200\text{ kg}.$$

bu erda m- mahsulot miqdori, kg, m = 1000 kg;

c –shu harorat oralig'ida moyning solishtirma issiqlik sig'imi, kokos moyi uchun $c = 2,24\text{ kJ/kg}\cdot\text{K}$;

η -bug' yo'qotishlarni hisobga olish koefitsienti, $\eta = 1,1$;

i_b - yopiq suv bug'ining foydali entalpiyasi, kJ/kg .

2.Uzluksiz liniyada gidrogenlash jarayonida moyni $t_1 = 120^\circ C$. dan $t_2 = 200^\circ C$ cha yopiq bug' ($P=3\text{ MPa}$) bilan isitish (issiqlik sarfi 151000 kJ/soat):

$$D_2 = 151000 / 1620 \cdot 6,25 = 15 \text{ kg}.$$

bu erda 6,25 –sexning ish quvvati, t/soat .

3.Yog' sig'imi va katalizator uchun apparatlar yuzasidan ($F=200 \text{ m}^2$) issiqlik yo'qotishlarni qoplash uchun sarflangan bug' ($P=0,3\text{ MPa}$) miqdori (solishtirma issiqlik yo'qotishlar $1100 \text{ kJ/m}^2 \cdot \text{soat}$ tashkil etadi):

$$D_3 = 1100 \cdot 200 / 1959 \cdot 6,25 = 18 \text{ kg}.$$

4.Uskuna va kommunikatsiyalarni bug' ($P=0,3\text{ MPa}$) bilan tozalash: tajriba ma'lumotlariga ko'ra 1t salomasga 5 kg bug' sarflanadi:

$$D_4 = 5 \text{ kg}.$$

5.Qushimcha sarflar (umumiylar sarfdan 10%):

$$D_5 = (D_1 + D_2 + \dots + D_4) \cdot 0,1 = 23,8 \text{ kg}$$

Bug'ning 1 t salomas uchun umumiylar sarf miqdori:

$$D_u = (D_1 + D_2 + \dots + D_5) = 261,8 \text{ kg}.$$

Texnologik extiyojlar uchun sarflanadigan suv miqdorini hisoblash

1.Filtrlashdan oldin salomasni $t_1 = 150^{\circ}\text{C}$ dan $t_2 = 100^{\circ}\text{C}$ cha sovitish:

$$W_1 = 1000 \cdot 2,47(150 - 100)/(50 - 27) \cdot 4,19 \cdot 1000 = 1,3 \text{ m}^3;$$

bu erda $2,47 = 100 \dots 150^{\circ}\text{C}$ haroratda salomasning o'rtacha issiqlik sig'imi, $\text{kJ/kg} \cdot \text{K}$;

27 va 50 sovitadigan suvning boshlang'ich va oxirgi haroratlari, $^{\circ}\text{C}$;

$4,19$ - suvning issiqlik sig'imi, $\text{kJ/kg} \cdot \text{K}$;

2.Vodorodni sovitish va quritish uchun aylanma suv sarfi:

$$W_2 = 1,54 \text{ m}^3;$$

3.Aylanma (sirkulyatsion) vodorodni sovitish va quritish uchun suv sarfi:

$$W_3 = 0,46 \text{ m}^3;$$

4.Quvvati $720 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lgan ikkita vodorod kompressor silindrlarini (kompressorlar soni liniyaning unumtdorligiga bog'liq) sovitish uchun suv sarfi (har bir val uchun bir minutda 20 l suv sarflanadi):

$$W_4 = 2 \cdot 20 \cdot 60 / 1000 \cdot 6,25 = 0,4 \text{ m}^3;$$

5.Qushimcha sarflar (umumiylar sarfdan 10%):

$$W_5 = (W_1 + W_2 + \dots + W_4) \cdot 0,1 = 0,37 \text{ m}^3;$$

Suvning 1 t salomas uchun umumiylar sarf miqdori:

$$W_u = W_1 + W_2 + \dots + W_5 = 4,1 \text{ m}^3.$$

Masalalar. 1. Soya moyini gidrogenlash uchun vodorod sarfini aniqlang: dastlabki yog'ning yod soni $J_1 = 125 \% J_2$; olingan salomasning yod soni $J_2 = 65 \% J_1$.

2.Paxta moyini gidrogenlash jarayonining moddiy hisobini bajaring.
Dastlabki yog'ning yod soni $J_1 = 110 \% J_2$; **olingan salomasning yod soni** $J_2 = 72 \% J_1$; liniyaning unumidorligi (salomas bo'yicha) - 12 t/sut.

3. Kuniga 24 t paxta moyini gidrogenlash uchun vodorod va katalizator sarfini aniqlang. Dastlabki yog'ning yod soni $J_1 = 116 \% J_2$; **olingan salomasning yod soni** $J_2 = 70 \% J_1$.

Nazorat savollari:

1. **Yog'larni gidrogenlash usullari.**
2. **Moylarni gidrogenlash texnologiyasini parametrlari.**
3. **Moylarni avtoklavlarda gidrogenlash.**
4. **Gidrogenlashga bosim va haroratni ta'siri.**
5. **Katalizator sarfi qanday aniqlanadi?**
6. **Vodorod sarfi qanday aniqlanadi?**
7. **Moylarni gidrogenlash jarayonidagi yo'qotishlar turlari.**

III. MARGARIN VA MAYONEZ ISHLAB CNIQARISHDA MODDIY HISOBLAR

Margarin - bu mayda zarrachali emulsiya bo'lib, uning tarkibiga yog'lar, sut, tuz, shakar, vitaminlar, fosfolipidlar, emulgator va boshqalar kiradi. Margarinni ko'rinishi, sifati, mazasi uni tarkibiga qushiladigan moddalarning turi va miqdoriga bog'liq bo'ladi. Margarin, qandolat, non mahsulotlari va oshpazlik yog'larning retsepturalari ularni ishlatilishiga qarab tuziladi. Margarinni yog'li asosi turli yog'larning aralashmasidan iborat. Erish harorati, qattiqlikligi va qattiq faza miqdori margarinni asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Margarin mahsulotlarning sifati amal qiluvchi davlat standarti, tarmoq standarti va organoleptik, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bilan baholanadi. Margarinning sifati, uning tarkibiga kiruvchi komponentlarning miqdori jixatdan to'g'ri tanlanganligiga, retseptura hamda ishlab chiqarishning texnologik rejimlariga qat'iy ravishda rioxha etilishiga bog'liq.

Margarin ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallar sarfini aniqlash

Margarin ishlab chiqarishning moddiy hisobi xom ashyo va materiallarning sarfini tanlab olingan retseptura asosida aniqlashga asoslangan.

Moddiy hisoblarni bajarish uchun dastlaki ma'lumotlar:

sexning ishlab chiqarish quvvati: $M_1 = 100t/\text{sut}$ (ikki smenada);

bir yilda 282 ish kunlari bo'lsa sexning yillik ishlab chiqarish quvvati: $M_2 = 100 \cdot 282 \approx 28000 \text{ t}$.

Margarin sexida o'rnatilgan uskunalarda keng assortimentdagi margarin mahsulotlarni ishlab chiqarish mumkin.

Xom ashyo va materiallar sarfini aniqlash uchun moddiy hisoblar retsepturalar asosida 1 t tayyor mahsulot uchun bajariladi (3.1-jadval).

Margarin mahsulotlar retsepturasi (%)

Komponentlar	Margarin			Oshpazlik yog'
	oshxona “Sutli”	“Ekstra”	yumshoq “Stolichniy”	
1-markali salomas ($t_{er} = 31 \dots 34^{\circ}\text{C}$, qattiqligi 160...320 g/sm)	69,00...54,0	30,0...32,0	10,0...18,0	40,0...60,0
2-markali salomas ($t_{er} = 34 \dots 36^{\circ}\text{C}$, qattiqligi 300...450 g/sm)	-	22,0...18,0	12,0...7,00	-
2-markali qayta eterifikat-siyalangan yog' ($t_{er} = 25 \dots 35^{\circ}\text{C}$, qattiqligi 30...130 g/sm)	-	-	-	60,0...40,0
Kokos yoki palma yog'i	-	18,0...20,0	7,0...10,0	-
O'simlik moyi, shu jumladan emulgatorni eritish uchun	13,01...27,66	11,7...11,47	29,95...24,05	-
Oziqa bo'yoyq	0,05...0,20	0,05...0,20	0,3...0,4	-
Emulgator	0,05...0,10	0,05...0,10	-	-
Yumshoq monoglitseridlar	-	-	0,80...0,60	-
Oziqa fosfatid kontsentrati	-	-	0,2	-
Shakar	0,30...0,50	0,30...0,40	-	-
Tuz	0,30...0,70	0,30...0,40	0,30...0,70	-
Sigir suti	4,50...9,00	14,0...15,0	-	-
Limon kislota	-	-	0,01...0,02	-
Suv	12,79...7,84	3,60...2,43	39,44...39,03	-
Jami, shu jumladan yog'lar sut yog'i bilan birgalikda	100,0	100,0	100,0	100,0
Chiqindilar	82,25	82,25	60,25	1,44
Yo'qotishlar	0,28	0,28	0,25	2,35
	0,3	0,3	0,33	

Margarin mahsulotlarini ishlab chiqarishda chiqindilar va yo'qotishlar miqdori (texnologik standartlarga ko'ra), %:

	Chiqindilar	Yo'qotishlar	Jami
qadoqlanmagan margarin	0,1	0,14	0,24
qadoqlangan margarin (yog' miqdori 82% bo'lganda)	0,28	0,3	0,58
qadoqlangan margarin (yog' miqdori 72% cha bo'lganda)	0,25	0,33	0,58
oshpazlik, qandolatchilik va novvoylik yog'	1,44	0,91	2,35

3.2-jadval

Ishlab chiqariladigan mahsulotning assortimenti

Mahsulot	bir sutkada	Miqdori, t					
		shu jumladan		yilliga	shu jumladan		
		maya idishlarda	katta idishlarda		maya idishlarda	katta idishlarda	
Margarin	60	45	15	16800	12600	4200	
Shu jumladan							
“Ekstra”.....	10	10	-	2800	2800	-	
oshxona “Sutli”.....	45	30	15	12600	8400	4200	
yumshoq “Stolichniy”..	5	5	-	1400	1400	-	
Oshpazlik yog'	40	-	40	11200	-	11200	
Jami	100	45	55	28000	12600	15400	

1 t oshxona “Sutli” margarin ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallar sarfi:

$$1\text{-markali salomas} \quad S = \frac{60 \cdot 1000}{100} = 600 \text{ kg/t}$$

$$(t_{er} = 31 \dots 34^{\circ}\text{C}, \quad \text{qattiqligi})$$

160...320 g/sm)

$$\text{O'simlik moyi} \quad M = \frac{20 \cdot 1000}{100} = 200 \text{ kg/t}$$

$$\text{Oziqa bo'yoq} \quad B = \frac{0,1 \cdot 1000}{100} = 1,0 \text{ kg/t}$$

Emulgator	$E = \frac{0,08 \cdot 1000}{100} = 0,8 \text{ kg/t}$
Shakar	$Sh = \frac{0,4 \cdot 1000}{100} = 4,0 \text{ kg/t}$
Tuz	$T = \frac{0,5 \cdot 1000}{100} = 5,0 \text{ kg/t}$
Sigir suti	$St = \frac{7,00 \cdot 1000}{100} = 70,0 \text{ kg/t}$
Suv	$Sv = \frac{10 \cdot 1000}{100} = 100 \text{ kg/t}$
Chiqindi va yo'qotishlar miqdori	$O = \frac{0,58 \cdot 1000}{100} = 5,8 \text{ kg/t}$

Chiqindi va yo'qotishlarni hisobga olgan holda margarin emulsiyaning miqdori:

$$Em = 1000 + 5,8 = 1005,8 \text{ kg}$$

Shu jumladan

1-markali salomas ($t_{er} = 31 \dots 34^{\circ}\text{C}$,	qattiqligi	$S_1 = \frac{60 \cdot 1005,8}{100} = 603,48 \text{ kg/t}$
---	------------	---

160...320 g/sm)

O'simlik moyi	$M_1 = \frac{20 \cdot 1005,8}{100} = 201,16 \text{ kg/t}$
---------------	---

Oziqa bo'yoy	$B_1 = \frac{0,1 \cdot 1005,8}{100} = 1,01 \text{ kg/t}$
--------------	--

Emulgator	$E_1 = \frac{0,08 \cdot 1005,8}{100} = 0,80 \text{ kg/t}$
-----------	---

Shakar	$Sh_1 = \frac{0,4 \cdot 1005,8}{100} = 4,02 \text{ kg/t}$
--------	---

Tuz	$T_1 = \frac{0,5 \cdot 1005,8}{100} = 5,03 \text{ kg/t}$
-----	--

Sigir suti	$St_1 = \frac{7,00 \cdot 1005,8}{100} = 70,41 \text{ kg/t}$
------------	---

Suv	$Sv_1 = \frac{10 \cdot 1005,8}{100} = 100,58 \text{ kg/t}$
-----	--

It oshpazlik yog‘, “Ekstra”, yumshoq “Stolichniy” margarinlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallar sarfi shu tartibda aniqlanadi.

Kuniga 100 t margarin mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan sex uchun xom ashyo va materiallar sarfi 3.3-jadvalda keltirilgan.

3.3-jadval

Komponentlar	Margarin						Oshpazlik yog'	Jami bir kunda, t		
	oshxona "Sutli"		"Ekstra"		yumshoq "Stolichnyi"					
	1 tuchun, kg	45 tuchun, t	1 tuchun, kg	10 tuchun, t	1 tuchun, kg	5 tuchun, t				
1-markali salomas	603,48	27,16	311,8	3,12	140,81	0,70	511,75	20,47		
2-markali salomas	-	-	201,16	2,01	100,58	1,01	-	-		
2-markali qayta eterifikatsiyalan gan yog'	-	-	-	-	-	-	511,75	20,47		
Kokos yoki palma yog'i	-	-	191,1	1,91	70,40	0,3	-	-		
O'simlik moyi	201,16	9,05	115,67	1,16	251,45	1,26	-	-		
Oziqa bo'yоq	1,01	0,5	1,01	0,10	3,52	0,02	-	-		
Emulgator	0,80	0,04	0,80	0,01	-	-	-	-		
Yumshoq monoglitseridlar	-	-	-	-	7,04	0,04	-	-		
Oziqa fosfatid kontsentrati	-	-	-	-	2,01	0,01	-	-		
Shakar	4,02	0,18	3,52	0,35	-	-	-	-		
Tuz	5,03	0,23	3,52	0,35	5,03	0,03	-	-		
Sigir suti	70,41	3,17	145,84	1,46	-	-	-	-		
Limon kislota	-	-	-	-	0,20	0,001	-	-		
Suv	100,58	4,53	30,17	0,30	390,26	1,95	-	-		
Chiqindilar	2,8	0,13	2,8	0,03	2,5	0,01	14,4	0,58		
Yo'qotishlar	3,0	0,14	3,0	0,03	3,3	0,02	9,1	0,36		
								0,55		

**Kuniga 100 t margarin mahsulotlari ishlab chiqarish uchun
sarflanadigan bug‘ va suv miqdorini hisoblash**

Bug‘ sarfi A. Margarin ishlab chiqarishda

1.Pasterizatorda sutni $t_d = 40^{\circ}\text{C}$ dan $t_o = 85^{\circ}\text{C}$ cha issiq suv bilan isitish (suv harorati $t_s = 95^{\circ}\text{C}$). Suv o‘tkir bug‘ bilan isitiladi ($P=0,3 \text{ MPa}$), bug‘ning foydali issiqlik berishi - 529 kkal/kg).

$$D_1 = mc(t_d - t_o)\eta / 529 = 4630 \cdot 1(85 - 40)1,1 / 529 = 433,2 \text{ kg};$$

bu erda m- mahsulot miqdori, kg, m = 4630 kg;

η - bug‘ yo‘qotishlarni hisobga olish koeffitsienti, $\eta = 1,1$.

2.Ivitishdan oldin sutni $t_d = 6^{\circ}\text{C}$ dan $t_o = 28^{\circ}\text{C}$ cha issiq suv bilan isitish:

$$D_2 = 4630 \cdot 1(28 - 6)1,1 / 529 = 211,8 \text{ kg}.$$

3.Aralashtirgichga berishdan oldin sutni $t_d = 6^{\circ}\text{C}$ dan $t_o = 20^{\circ}\text{C}$ cha isitish:

$$D_3 = 4630 \cdot 1(20 - 6)1,1 / 529 = 134,8 \text{ kg}.$$

4.200 kg emulgatorning moyli eritmasini (50 kg emulgator va 150 kg moy) $t_d = 20^{\circ}\text{C}$ dan $t_o = 60^{\circ}\text{C}$ cha yopiq bug‘ bilan isitish, (emulgatorning yashirin erish issiqligi $q = 40 \text{ kkal/kg}$):

$$D_4 = 200 \cdot 0,5(60 - 20) + 50 \cdot 40 / 467 = 12,85 \text{ kg}.$$

5.1060 kg shakar eritmasini (530 kg suv va 530 kg shakar) $t_d = 20^{\circ}\text{C}$ dan $t_o = 95^{\circ}\text{C}$ cha yopiq bug‘ bilan isitish:

$$D_5 = 1060 \cdot 1(95 - 20) / 467 = 170,24 \text{ kg}.$$

6.Aralashtirgichlarda 60 t emulsiyani 5°C ga issiq suv bilan isitish, margarin emulsiyaning issiqlik sig‘imi $c = 44 \text{ kkal}/(\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{C})$:

$$D_6 = 60000 \cdot 0,44 \cdot 5 \cdot 1,1 / 529 = 274,48 \text{ kg}.$$

7.Yog‘larni 24 soat davomida sig‘imlarga qabul qilish va saqlashda issiqlik yo‘qotishlarni kompensatsiya qilish. Adabiyotda berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra [9] 1 t margarin uchun 15 kg bug‘ sarflanadi:

$$D_7 = 60 \cdot 15 = 900 \text{ kg}.$$

8.Texnologik quvurlarni va uskunalarini yuvish uchun suvni $t_d = 20^\circ C$ dan $t_o = 50^\circ C$ cha yopiq bug' bilan isitish, 1 t margarin uchun 26 kg bug'sarflanadi:

$$D_8 = 60 \cdot 26 = 1560 \text{ kg.}$$

9.Texnologik quvurlarni va uskunalarini yaxshilab bug'latish, 1 t margarin uchun 20 kg bug' sarflanadi:

$$D_9 = 60 \cdot 20 = 1200 \text{ kg.}$$

10.Boshqa hisobga olinmagan sarflar (umumiy sarfdan 10%):

$$D_{10} = (D_1 + D_2 + \dots + D_9) \cdot 0,1 = 500 \text{ kg.}$$

Jami bug' sarfi:

$$D_u^1 = D_1 + D_2 + \dots + D_{10} = 5500 \text{ kg} = 5,5 \text{ t kg.}$$

B. Oshpazlik yog'larni ishlab chiqarishda

1.Aralashtirgichlarda 40 t yog'ni $5^\circ C$ ga issiq suv bilan isitish (yog' aralashmaning issiqliklik sig'imi $c = 42 \text{ kkal}/(\text{kg} \cdot {}^\circ \text{C})$) :

$$D_{11} = 40000 \cdot 0,42 \cdot 5 \cdot 1,1 / 529 = 174,67 \text{ kg.}$$

2.Texnologik quvurlarni va uskunalarini yuvish uchun suvni $t_d = 20^\circ C$ dan $t_o = 50^\circ C$ cha yopiq bug' bilan isitish, 1 t mahsulot uchun 26 kg bug' sarflanadi:

$$D_{12} = 40 \cdot 26 = 1040 \text{ kg.}$$

3.Texnologik quvurlarni va uskunalarini yaxshilab bug'latish, 1 t mahsulot uchun 10 kg bug'sarflanadi:

$$D_{13} = 40 \cdot 10 = 400 \text{ kg.}$$

4.Boshqa hisobga olinmagan sarflar (umumiy sarfdan 10%):

$$D_{14} = (D_{11} + D_{12} + D_{13}) \cdot 0,1 = 161,47 \text{ kg.}$$

Jami bug' sarfi:

$$D_u^2 = D_{11} + D_{12} + \dots + D_{14} = 1776,2 \text{ kg} = 1,8 \text{ t.}$$

Suv sarfi

1.Pasterizatorda sutni $t_d = 50^\circ C$ dan $t_o = 30^\circ C$ cha suv bilan sovutish:

$$W_1 = 4630 \cdot 1(50 - 30)1,1 / (25 - 20)1000 = 20,37 \text{ m}^3;$$

2.Texnologik quvurlar va qurilmalarni yuvish uchun (lt margarin mahsulotlari uchun $0,5 \text{ m}^3$ suv sarflanadi):

$$W_2 = 100 \cdot 0,5 = 50 \text{ m}^3;$$

3.Boshqa hisobga olinmagan sarflar (umumiylaridan 15%):

$$W_3 = (20,37 + 50) \cdot 0,15 = 10,56 \text{ m}^3;$$

Margarin sexida sarflangan suv miqdori:

$$W_u = W_1 + W_2 + W_3 = 81 \text{ m}^3/\text{sut.}$$

Margarin ishlab chiqarish uchun sovuqlik sarfi

1.Sutni namakob bilan sovutish

saqlash sig‘imlarda $t_d = 25^\circ\text{C}$ dan $t_o = 6^\circ\text{C}$ cha sovutib saqlash:

$$Q_1 = 4630 \cdot 1(25 - 6) \cdot 1,1 = 96767 \text{ kkal;}$$

plastinali pasterizatorda $t_d = 30^\circ\text{C}$ dan $t_o = 6^\circ\text{C}$ cha sovutish:

$$Q_2 = 4630 \cdot 1(30 - 6) \cdot 1,1 = 122232 \text{ kkal;}$$

ivitish vannada $t_d = 28^\circ\text{C}$ dan $t_o = 6^\circ\text{C}$ cha sovutish:

$$Q_3 = 4630 \cdot 1(28 - 6) \cdot 1,1 = 112046 \text{ kkal.}$$

2.60 t margarin emulsiyani o‘ta sovutgichda ammiak bilan sovutish, amaliy ma’lumotlar bo‘yicha 1t margarin uchun 24400 kkal sovuqlik sarflanadi:

$$Q_4 = 60 \cdot 24400 = 1464000 \text{ kkal.}$$

3.40 t oshpazlik yog‘larni $t_d = 35^\circ\text{C}$ dan $t_o = 20^\circ\text{C}$ cha sovutish (katta idishlarga qadoqlash uchun - 21800 kkal/t, mayda idishlarda - 26000 kkal/t):

$$Q_5 = 40 \cdot 21800 = 872000 \text{ kkal.}$$

Jami margarin sexida sovuqlik sarfi:

$$Q_u = Q_1 + Q_2 + \dots + Q_5 = 2667045 \text{ kkal.}$$

Mayonez ishlab chiqarishda moddiy hisoblar shu tartibda bajariladi. Xom ashyo va materiallar sarfini aniqlash uchun moddiy hisoblar retsepturalar asosida 1 tayyor mahsulot uchun bajariladi (3.4-jadval).

Mayonez retsepturasi

Komponentlar	Mayonez turi	
	Provansal	Bahor
	miqdori, %	miqdori, %
O'simlik moyi (paxta moyi)	65,4	65,6
Tuxum kukuni	5,0	5,0
Quruq sut	1,6	1,6
Shakar	1,5	1,5
Tuz	1,2	1,3
Soda	0,05	0,05
Gorchitsa kukuni	0,75	0,75
80 %-li sirkə kislötasi	0,65	0,75
Qora murch	-	0,175
Garmdori	-	0,05
Suv	23,85	23,2
Jami	100	100

Masalalar. 1. 3.4-jadvalda keltirilgan retseptura asosida mayonez ishlab chiqarishning moddiy hisoblarni bajaring:

Mayonez turi	Liniya quvvati, t/sut			
Provansal	15	20	3	5
Bahor	5	3	10	35

2. Kuniga 10 t saryog'li margarin ishlab chiqarish uchun moddiy hisoblarni bajaring.

3.1 t Bahor mayonezini ishlab chiqarish uchun asosiy va qushimcha materiallar sarfini hisoblang.

Nazorat savollari:

1. Margarin retsepturasi. Retseptura bo'yicha komponentlarni tayyorlash.
2. Margarin mahsulotlari assortimenti.
3. Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyolar.
5. Sutni tayyorlash, pasterizatsiyalash.
6. Margarin ishlab chiqarish texnologiyasining texnologik rejimlari.
7. Margarin uchun xom ashyo va materiallar sarfi qanday aniqlanadi?
8. Mayonez retsepturasi qanday tuziladi.
9. Mayonez uchun xom ashyo va materiallar sarfi qanday aniqlanadi?
10. Mayonezli pastani tayyorlashning texnologik rejimlari.

IV. YOG' KISLOTALARI VA GLITSERIN ISHLAB CHIQARISHNING MODDIY HISOBI


Glitserin va yog kislotalar asosan yog'larni gidroliz qilish yo'li bilan olinadi. Yog'larning gidrolizi (sovunlanishi) – kimyoviy jarayon bo'lib, uchglitseridni suv bilan o'zaro kimyoviy ta'siriga asoslangan. Gidroliz yoki yog'larning Sovunlanishi texnikada yog'ning parchalanishi deyiladi.

Gidroliz natijasida glitserinli suv va xom yog' kislotalari hosil bo'ladi.

Xom glitserin olish uchun aralashmalardan tozalangan glitserinli suv kontsentrlanadi. Glitserin va yog' kislotalarini yuqori sifatli navlarini olishda, xom glitserin va xom yog' kislotalari distillyatsiya qilinadi.

Respublikamizda glitserin va yog' kislotalarni yog'larni reaktivsiz parchalash usuli bilan olinadi.

Yog'larni parchalash jarayonining kimyoviy tenglamasi:



uchglitserid glitserin yog' kislotalari

Glitserin va yog' kislotalarning chiqishini va reaktsion suvning sarf miqdorini (% hisobida parchalangan uchglitseridlar massasiga nisbatan) quyidagi tenglamalar asosida hisoblash mumkin:

$$Yok = \frac{3M_k \cdot 100}{3M_k + M_g - 3M_s} = \frac{3M_k \cdot 100}{3M_k + 92 - 3 \cdot 18} = \frac{3M_k \cdot 100}{3M_k + 38} \quad (4.1)$$

$$Gl = \frac{M_g \cdot 100}{3M_k + M_g - 3M_s} = \frac{92 \cdot 100}{3M_k + 92 - 3 \cdot 18} = \frac{92 \cdot 100}{3M_k + 38} \quad (4.2)$$

$$W = \frac{3M_s \cdot 100}{3M_k + M_g - 3M_s} = \frac{3 \cdot 18 \cdot 100}{3M_k + 92 - 3 \cdot 18} = \frac{54 \cdot 100}{3M_k + 38} \quad (4.3)$$

bu erda *Yok* – yog' kislotalarning chiqishi;

Gl – glitserin chiqishi;

W – reaktsion suvning sarfi;

M_k – uchglitserid tarkibidagi yog' kislotalarning molekulyar massasi;

M_g – glitserin molekulyar massasi, *M_g*=92;

M_s – suvning molekulyar massasi, $M_s = 18$.

Reaktsion suvning sarfi (% hisobida glitserin massasi (og'irligi)ga nisbatan) o'zgarmas kattalik:

$$W = \frac{3M_s \cdot 100}{M_g} = \frac{3 \cdot 18 \cdot 100}{92} = 58,7 . \quad (4.4)$$

Yog' kislotalarning chiqishi uchglitserid tarkibidagi yog' kislotalarning tarkibiga bog'liq. Yog' tarkibidagi yog' kislotalarning molekulyar massasi qancha ko'p bo'lsa, ularning chiqish miqdori ortadi. Masalan, ucholein parchalanganda yog' kislotalarning chiqishi:

$$Yok = \frac{3 \cdot 282,3 \cdot 100}{3 \cdot 282,3 + 38} = 95,7\% .$$

Uchlaurin parchalanganda yog' kislotalarning chiqishi:

$$Yok = \frac{3 \cdot 200 \cdot 100}{3 \cdot 200 + 38} = 94,05\% .$$

Yog' tarkibidagi yog' kislotalarning molekulyar massasi oshganda hosil bo'lgan glitserin miqdori kamayadi. Masalan, **ucholein parchalanganda** glitserin chiqishi:

$$Gl = \frac{92 \cdot 100}{3 \cdot 282,3 + 38} = 10,4\% .$$

Uchlaurin parchalanganda glitserin chiqishi:

$$Gl = \frac{92 \cdot 100}{3 \cdot 200 + 38} = 14,42\% .$$

Glitserin chiqishi oshganda reaktsion suvning sarfi ortadi:

ucholein uchun:

$$W = \frac{54 \cdot 100}{3 \cdot 282,3 + 38} = 6,11\% ,$$

uchlaurin uchun:

$$W = \frac{54 \cdot 100}{3 \cdot 200 + 38} = 8,46\% .$$

Parchalanadigan yog'ning yog' kislotali tarkibi noma'lum bo'lganda yog' kislotalarning o'rtacha molekulyar massasi aniqlanadi:

$$M_{o'r} = \frac{\frac{3 \cdot 56 \cdot 100}{Ss} - 38}{3}, \quad (4.5)$$

bu erda Ss- yog'ning sovunlanish soni (laboratoriya da aniqlanadi).

Masalan, kungaboqar moyidan tayyorlangan salomasning sovunlanish soni 190 teng.

Yog' kislotalar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasi:

$$M_{o'r} = \frac{\frac{3 \cdot 56 \cdot 100}{190} - 38}{3} \approx 282.$$

$M_{o'r}$ qiymatini (4.1), (4.2) va (4.3) tenglamalarga qo'yib kungaboqar moyidan tayyorlangan salomasning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan yog' kislotalari (% hisobida parchalanayotgan uchglitseridlar massasiga nisbatan) aniqlanadi:

$$Yok = \frac{3 \cdot 282 \cdot 100}{3 \cdot 282 + 38} = 95,7\%.$$

Glitserin chiqishi:

$$Gl = \frac{92 \cdot 100}{3 \cdot 282 + 38} = 10,4\%.$$

Reaktsion suvning sarfi:

$$W = \frac{54 \cdot 100}{3 \cdot 282 + 38} = 6,1\%$$

Boshqa yog'larning parchalanishi natijasida glitserin va yog' kislotalarning chiqishi shunga o'xshash aniqlanadi. 4.1-jadvalda turli xil yog' va moylarning parchalanishida glitserin va yog' kislotalarning nazariy chiqishlari keltirilgan [9].

4.1-jadval

Yog'lar va moylar	Yog' tarkibidagi yog' kislotalarning molekulyar massasi, M_k	Chiqishi, %		Reaktsion suvning sarfi, W , %
		yog' kislotalar, <i>Yok</i>	glitserin, <i>Gl</i>	
O'simlik moylar				
Qattiq				
palma	270	95,52	10,85	6,37
palmayadroli	216	94,46	13,41	7,87
kokos	206	94,12	14,02	8,29
Suyuq				
yeryong'oq	281	95,69	10,44	6,13
kungabooqar	280	95,67	10,47	6,14
soya	277	95,63	10,59	6,21
paxta	276	95,61	10,64	6,24
raps	308	96,05	9,56	5,61
zig'ir	280	95,67	10,47	6,14
kastor	296	95,90	9,94	5,84
Hayvon yog'lar				
mol	274	95,57	10,70	6,27
quy	274	95,56	10,74	6,30
chuchqa	274	95,57	10,70	6,27
Gidrogenlangan				
yog'lar				
Salomas				
kungabooqar	282	95,70	10,40	6,10
paxta	278	95,64	10,55	6,19
soya	279	95,66	10,51	6,17

Yog'larni reaktivsiz parchalash jarayonining moddiy hisobi

Ilt kungabooqar moyidan tayyorlangan texnik salomasning gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan glitserin va yog' kislotalarning miqdorini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

salomasning sovunlanish soni S_s 190

kislotali soni K_s (mg KOH/g)..... 4

erkin yog' kislotalarning miqdori K_e 2%

efir soni $E = (S_s - K_s)$ 186

parchalanayotgan salomas tarkibida yog'

kislotalar miqdori Yok 95,7%

Parchalash jarayoni avtoklavda (bosim $P = 2,5 \text{ MPa}$) ikki bosqichda olib boriladi.

Yog‘larni gidrolizlanish darajasi birinchi davrdan keyin $R_1 = 85\%$, ikkinchi davrdan keyin $R_2 = 95\%$.

Gidrolizlanishning ikkinchi davrda beriladigan kondensat miqdori $B_2 = 300 \text{ kg/t}$.

Uchglitseridning gidrolizi natijasida yog‘ va yog‘ kislotalarning massasi (og‘irligi) sekin-asta kamayib boradi. Bunday kamayish parchalanish darajasiga R , yog‘ning boshlang‘ich kislotaligiga K_e va hosil bo‘lgan yog‘ kislotalarning nazariy miqdoriga *Yok* bog‘liq. Reaktsiyaga ishtirok etadigan dastlabki yog‘ miqdorini aniqlash uchun o‘tish koeffitsienti (parchalangan yog‘dan boshlang‘ich yog‘ga) topiladi:

$$K_p = \frac{R - K_e}{Yok} + \frac{K_e + 100 - R}{100} \quad (4.6)$$

Gidrolizning birinchi davri. Parchalanish darajasi $R_1 = 85\%$, $K_e = 2\%$ va hosil bo‘lgan yog‘ kislotalarning nazariy miqdori $Yok = 95,7\%$ bo‘lganda o‘tish koeffitsienti:

$$K_{p1} = \frac{85 - 2}{95,7} + \frac{2 + 100 - 85}{100} = 1,0373$$

Reaktsiyaga kirgan uchglitseridlar miqdori:

$$Yo_{n1} = G \frac{R_1 - K_e}{Yok} = 1000 \cdot \frac{85 - 2}{95,7} = 867,3 \text{ kg} \quad (4.7)$$

Birinchi davrdan keyin parchalangan yog‘ning nazariy miqdori (mono-va diglitseridlarni hisobga olmagan holda): kg

$$G_{K1} = \frac{G}{K_{p1}} = \frac{1000}{1,0373} = 964 \text{ kg.} \quad (4.8)$$

Shu jumladan:

a) yog‘ kislotalari

$$Yok_1 = \frac{GR_1}{K_{p1} \cdot 100} = \frac{1000 \cdot 85}{1,0373 \cdot 100} = 819,4 \text{ kg;}$$

b) uchglitseridlar

$$Yo'_{n1} = \frac{G(100 - R_1)}{K_{p1} \cdot 100} = \frac{1000 \cdot (100 - 85)}{1,0373 \cdot 100} = 144,6 \text{ kg.}$$

Glitserin nazariy chiqishi yog'ning efir soni E va glitserinli koeffitsienti φ ($\varphi=0,0547$) asosida aniqlanadi:

$$Gl = E \cdot \varphi \% . \quad (4.9)$$

Efir soni sovunlanish soniga teng bo'lgan $E=Ss=190$ salomas uchun glitserin chiqishi: $Gl = E \cdot \varphi = 190 \cdot 0,0547 = 10,4\%$ teng.

Yog'lar to'liq parchalanmaganda glitserin chiqishi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$Gl = (E - E_p) \cdot \varphi \% , \quad (4.10)$$

bu erda E –salomasning efir soni, $E = 186$;

E_p – qisman parchalangan yog'ning efir soni.

Amalda glitserin chiqishi nazariy hisoblarga qaraganda (sanoatdag'i yo'qotishlar hisobiga) kam bo'ladi.

P.V.Naumenko ko'ra glitserin chiqishining kamayishi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflash mumkin:

	10	20	30	40	50	60	70	80	90	95
Parchalamish darajasi R, %										
Glitserin chiqishi (nazariy hisoblangan miqdoriga nisbatan) n, %	29,74	41,4	61,3	67,6	74,3	82,1	89,5	92,6	95,5	98

Hosil bo'lgan mono- va diglitseridlarni hisobga olgan holda glitserin chiqishi:

$$Gl = (E - E_p) \cdot \varphi n \% ,$$

yoki massa (og'irligi) bo'yicha:

$$Gl = 1000 \frac{(E - E_p)}{100} \cdot \varphi n \text{ kg.} \quad (4.11)$$

Birinchi davrdan keyin parchalangan yog'ning efir soni:

$$E_{pl} = \frac{Ss(100 - R_1)}{K_{pl} \cdot 100} = \frac{190(100 - 85)}{1,0373 \cdot 100} = 27,2 , \quad (4.12)$$

bu erda Ss – yog'ning sovunlanish soni.

Birinchi davrdan keyin glitserin chiqishi:

$$Gl_1 = 1000 \frac{(E - E_p)}{100} \cdot \varphi n_1 = 1000 \frac{(186 - 27,2)}{100} \cdot 0,0547 \cdot 0,94 = 81,7 \text{ kg.}$$

$$n_1 = \frac{92,6 + 95,5}{2} = 94\% = 0,94.$$

Birinchi davrdan keyin mono- va diglitseridlar holatda bog'langan glitserin miqdori:

$$Gl_m = 1000 \frac{(E - E_{p1})}{100} \cdot \varphi (1 - n_1) = 1000 \frac{(186 - 27,2)}{100} \times \\ \times 0,0547 (1 - 0,94) = 5,2 \text{ kg}$$

Birinchi davrdan keyin parchalangan yog' miqdori mono- va diglitseridlar hisobiga quyidagi qiymatga ortadi:

$$N_1 = \frac{Gl'_m (100 - W)}{100} = \frac{5,2(100 - 58,7)}{100} \approx 2,2 \text{ kg.}$$

Birinchi davrdan keyin parchalangan yog' miqdori:

$$G_{K1} = G_{K1} + N_1 = 964 + 2,2 = 966,2 \text{ kg}$$

Gidrolizning ikkinchi davri. Reaktsiyaga kirgan uchglitseridlar miqdori:

$$Yo_{n2} = G \frac{R_2 - K_e}{Yok} = 1000 \cdot \frac{95 - 2}{95,7} = 971,8 \text{ kg}$$

O'tish koefitsienti:

$$K_{p2} = \frac{R_2 - K_e}{Yok} + \frac{K_e + 100 - R_2}{100} = \frac{95 - 2}{95,7} + \frac{2 + 100 - 95}{100} = 1,042 \quad (4.13)$$

Ikkinchi davrdan keyin parchalangan yog'ning nazariy miqdori (mono- va diglitseridlarni hisobga olmagan holda):

$$G_{K2} = \frac{G}{K_{p2}} = \frac{1000}{1,042} = 960 \text{ kg.}$$

Shu jumladan:

a) yog' kislotalari:

$$Yok_2 = \frac{GR_2}{K_{p2} \cdot 100} = \frac{1000 \cdot 95}{1,042 \cdot 100} = 912 \text{ kg;}$$

b) uchglitseridlar:

$$Yo_{n2} = \frac{G(100 - R_2)}{K_{p2} \cdot 100} = \frac{1000 \cdot (100 - 95)}{1,042 \cdot 100} = 48 \text{ kg.}$$

Aralashma kislotaligi:

$$K_{s2} = \frac{Yok_2 \cdot 100}{G_{K2}} = \frac{912 \cdot 100}{960} \approx 95\%,$$

Ikkinchidavrdan keyin parchalangan yog'ning efir soni:

$$E_{p2} = \frac{S(100 - R_2)}{K_{p2} \cdot 100} = \frac{190 \cdot (100 - 95)}{1,042 \cdot 100} = 9,1.$$

Birinchi va ikkinchi davrlardan keyin glitserin chiqishi:

$$Gl = 1000 \frac{(E - E_{p2})}{100} \cdot \varphi n_2 = 1000 \frac{(186 - 9,1)}{100} \cdot 0,0547 \cdot 0,98 = 94,8 \text{ kg.}$$

Shu jumladan ikkinchi davrdan keyin:

$$Gl_2 = 94,8 - 81,7 = 13,1 \text{ kg.}$$

Parchalanish darajasi $R_2 = 95\%$ bo'lganda $n_2 = 98\% = 0,98$.

Ikkinchidavrdan keyin mono- va diglitseridlar holatda bog'langan glitserin miqdori:

$$Gl''_m = 1000 \frac{(E - E_{p2})}{100} \cdot \varphi (1 - n_2) = 1000 \frac{(186 - 9,1)}{100} \times \\ \times 0,0547 \cdot (1 - 0,98) = 1,9 \text{ kg.}$$

Ikkinchidavrdan keyin parchalangan yog' miqdori mono- va diglitseridlar hisobiga quyidagi qiymatga ortadi:

$$N_2 = \frac{Gl''(100 - W)}{100} = \frac{1,9(100 - 58,7)}{100} \approx 0,8 \text{ kg.}$$

Ikkinchidavrdan keyin parchalangan yog' miqdori:

$$G_{K2} = G_{K2} + N_2 = 960 + 0,8 = 960,8 \text{ kg}$$

Uchglitseridlar massasi (og'irligi)ga nisbatan glitserin chiqishi:

$$Gl_n = \frac{Gl \cdot 100}{G \frac{100 - K_n}{100}} = \frac{94,8 \cdot 100}{1000 \cdot \frac{100 - 2}{100}} = 9,67 \%$$

1 t salomasning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan glitserin va yog' kislotalarning nazariy miqdorlari 4.2-jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatgichlar	Yog'		
	boshlang'ich	parchalangan	
		1- davrdan keyin	2- davrdan keyin
Kislotali son.....	4,0	170,0	190,0
Esfir soni.....	186,0	27,2	9,1
Parchalangan yog'ning chiqishi, kg.....	-	966,2	960,8
Shu jumladan yog' kislotalari.....	20		
uchglitseridlar, mono- va		819,4	912
diglitseridlar.....	980	146,8	48,8
Glitserin chiqishi, kg.....	-	81,7	13,1

Glitserinli suvning kontsentratsiyasini aniqlash

Birinchi glitserinli suv. Gidrolizning birinchi davrini o'tkazilishi uchun oldingi partiyadan qolgan ikkinchi glitserinli suv $B_{g2} = 474,4 \text{ kg/t}$ (1 t yog' parchalanishi natijasida qolgan ikkinchi glitserinli suv) miqdorda (boshlang'ich yog' massasiga nisbatan) beriladi. Birinchi davrda yog' va glitserinli suvni qizdirilishi natijasida hosil bo'lgan kondensat miqdori:

$$b_k = 152 + 55 = 207 \text{ kg/t.}$$

Birinchi davrda avtoklavdagi issiqlik yo'qotishlarni 4 soat davomida kompensatsiya qilish natijasida hosil bo'lgan kondensat miqdori:

$$b_k'' = \frac{19 \cdot 4}{4} = 19 \text{ kg/t.}$$

Yuqorida keltirilgan moddiy hisoblarga muvofiq gidrolizning birinchi davrida $G_l = 81,7 \text{ kg}$ glitserin hosil bo'ladi. Reaktsion suvning sarfi glitserin massasiga nisbatan 58,7% yoki:

$$W_1 = \frac{81,7 \cdot 58,7}{100} = 47,9 \text{ kg teng.}$$

Birinchi glitserinli suvning miqdori:

$$\begin{aligned} B_{g1} &= B_{g2} + b_k + b_k'' + G_l - W_1 = \\ &= 474,4 + 207 + 19 + 81,7 - 47,9 = 734,2 \text{ kg} \end{aligned} \quad (4.14)$$

Avtoklavdan chiqarib yuboriladigan birinchi glitserinli suvning kontsentratsiyasi:

$$y_1 = \frac{G_l \cdot 100}{B_{g1}} = \frac{94,8 \cdot 100}{734,2} = 12,9 \%. \quad (4.15)$$

Parchalangan yog'da $225^{\circ}C$ da taxminan 10% suv eriydi:

$$b_{yo} = G_{K2} \cdot 0,1 = 960,8 \cdot 0,1 = 96 \text{ kg}.$$

Avtoklavdan chiqarib yuboriladigan birinchi glitserinli suvning miqdori:

$$B'_{g1} = B_{g1} - b_{yo} = 734,2 - 96 = 638,2 \text{ kg}.$$

Ikkinci glitserinli suv. Gidrolizning ikkinchi davrida beriladigan yangi kondensat miqdori: $B_a = 300 \text{ kg/t}$.

Ikkinci davrdan oldin reagentlarni qizdirish natijasida hosil bo'lgan kondensat miqdori:

$$b_{K1} = 46 + 97 + 14 = 157 \text{ kg/t}.$$

Ikkinci davrda avtoklavdagi issiqlik yo'qotishlarni 2,5 soat davomida kompensatsiya qilish natijasida hosil bo'lgan kondensat miqdori:

$$b_{K2} = \frac{19 \cdot 2,5}{4} = 12 \text{ kg/t}.$$

Gidrolizning ikkinchi davrida $G_l_2 = 13,1 \text{ kg}$ glitserin hosil bo'ladi.

Reaktsion suvning sarfi (4.4):

$$W_2 = \frac{13,1 \cdot 58,7}{100} = 7,7 \text{ kg teng}.$$

Ikkinci glitserinli suvning miqdori:

$$\begin{aligned} B_{g2} &= B_a + b_{K1} + b_{K2} + G_l_2 - W_2 = \\ &= 300 + 157 + 12 + 13,1 - 7,7 = 474,4 \text{ kg} \end{aligned}$$

Parchalangan yog' bilan ikkinchi davrga olib ketiladigan birinchi glitserinli suvning miqdori: $b_{yo} = 96 \text{ kg/t}$, kontsentratsiyasi $y_1 = 12,9\%$ tashkil etadi.

Olib ketiladigan glitserin miqdori:

$$G_l_y = \frac{y_1 \cdot b_{yo}}{100} = \frac{12,9 \cdot 96}{100} = 12,4 \text{ %.}$$

Birinchi va ikkinchi glitserinli suvning tarkibida glitserin miqdori:

$$Gl_u = Gl_2 + Gl_y = 13,1 + 12,4 = 25,5 \text{ kg/t}$$

Ikkinci glitserinli suvning kontsentratsiyasi:

$$y_2 = \frac{Gl_u \cdot 100}{B_{g2} + b_{yo}} = \frac{25,5 \cdot 100}{474,4 + 96} = 4,5 \%$$

Gidroliz jarayonining moddiy balansi

Gidrolizga kelgan, kg	Hosil bo'lgan mahsulotlar, kg
Birinchi davr	
Boshlang'ich yog' (G).....1000	Parchalangan yog' (G'_{K1}).....966,2
Ikkinci glitserinli suv (B_{g2}).....474,4	Shu jumladan: yog' kislotalari (Y_{ok_1}).....819,4 uchglitseridlar+ mono- va digitseridlar ($Yo_{n1} + N_1$)146,8
Hosil bo'lgan kondensat ($b'_k + b''_k$).....226	Avtoklavdan chiqarib yuborilgan 1-glitserinli suv (b'_{gl}).....638,2 Shu jumladan glitserin (Gl).....94,8 Yog'da erigan glitserinli suv (b_{yo}).....96
Jami.....1700,4	Jami.....1700,4
Ikkinci davr	
Birinchi davrdan keyin qisman parchalangan yog' (G'_{K1}).....966,2	Parchalangan yog' (G'_{K2}).....960,8
Avtoklavga qo'shiladigan yangi kondensat (B_a).....300	Shu jumladan: yog' kislotalari (Y_{ok_2}).....912 uchglitseridlar+ mono- va digitseridlar ($Yo_{n2} + N_2$)48,8
Hosil bo'lgan kondensat ($b_{K1} + b_{K2}$).....169	Ikkinci glitserinli suv (B_{g2}).....474,4 Shu jumladan glitserin (Gl ₂).....13,1
Yog'da erigan glitserinli suv (b_{yo}).....96	Yog'da erigan glitserinli suv (b_{yo}).....96
Jami.....1531,2	Jami.....1531,2

Reaktivsiz gidroliz jarayonida yog'ning qaytmas yo'qotishlar δ quyidagi jarayonlar natijasida hosil bo'ladi:

yog'larning termik parchalanishi,

uchuvchan yog' kislotalari oraliq bug' bilan chiqib ketishi,
suvda eriydigan yog' kislotalar bilan.

Qaytmas yo'qotishlar 0,3-0,5% tashkil etadi. Hisoblar uchun $\delta = 0,4\% = 4 \text{ kg/t}$ teng.

Ikkinci davrdan keyin avtoklavdan chiqayotgan parchalangan yog' miqdori (qaytmas yo'qotishlar δ, mono- va digitseridlarni hisobga olgan holda):

$$G_p = G_{K2} - (b + \delta) = 960,8 - (4 + 4) = 952,8 \text{ kg.}$$

Parchalangan salomas sovun ishlab chiqarishga yuborilganda uning tarkibida qolgan uchglitseridlarni sovunlanadi. Bu jarayondagi yo'qotishlar:

$$\delta = \frac{Y_{O_n}(100 - Y_{O_n})}{100} + N_2 = \frac{48(100 - 95,7)}{100} + 0,8 = 2,9 \text{ kg.} \quad (4.16)$$

Demak, yog' kislotalarning chiqishi:

$$G_m = G_p - \delta + b = 952,8 - 2,9 + 4 = 953,9 \text{ kg} \quad (4.17)$$

yoki 95,39 % tashkil etadi.

Glitserin chiqishini hisoblash

Yog'larni parchalash va glitserinli suvlarni tozalash jarayonida hosil bo'lgan yo'qotishlar (korxonalarining amaliy ma'lumotlrga ko'ra) 4.3-jadvalda keltirilgan.

4.3- jadval

Glitserin yo'qotishlarning sabablari	Glitserin yo'qotishlari, %	
	uchglitseridlarni tarkibidagi glitserin miqdoriga nisbatan	umumiy yo'qotishlar miqdoriga nisbatan
Yog' kislotalar bilan olib ketilgan Glitserinli suvlarni bug'latish natijasida hosil bo'lgan	2,5	50
Boshqa hisobga olinmagan yo'qotishlar	2,0	40
Jami	0,5	10
	5	100

Yo'qotishlarni hisobga olgan holda glitserin chiqishi:

$$Gl_g = Gl \cdot 0,95 = 94,8 \cdot 0,95 = 90 \text{ kg yoki } 9\%.$$

Ishlab chiqarishda glitserin chiqishi texnik glitseringa nisbatan hisoblanadi. Standart bo'yicha texnik glitserin tarkibida glitserin miqdori 86 % tashkil etadi.

Demak, salomas parchalanganda texnik glitserin chiqishi (uchglitseridlar massasiga nisbatan):

$$Gl_t = \frac{Gl_n \cdot 0,95}{0,86} = \frac{9,67 \cdot 0,95}{0,86} = 10,7\% . \quad (4.18)$$

Parchalangan yog' massasiga nisbatan texnik glitserin chiqishi:

$$Gl'_t = \frac{Gl_t}{0,86} = \frac{9}{0,86} = 10,5\%.$$

Suv sarfini hisoblash

Gidrolizni ikkinchi davrini olib borish uchun avtoklavga yangi kondensat qo'shiladi: $B_a = 300 \text{ kg/t}$.

Yog'larni parchalash jarayonida avtoklavga 250 kg/t oraliq bug' kelib turadi. Kondensatlangan bug' miqdori- $14+10=24 \text{ kg}$. Qolgan bug' bosimni pasaytirish uskunadan o'tib dastlabki bug' latish apparatiga yuboriladi.

Oraliq bug' dan foydalanish koeffitsienti 95% bo'lganda hosil bo'lgan kondensat miqdori:

$$B_{a1} = (250 - 24) \cdot 0,95 = 215 \text{ kg.}$$

Yog' kislotalari bosimni pasaytirish uskunadan o'tkazilganda hosil bo'lgan ikkilamchi bug'larning kondensatsiyasi natijasida hosil bo'lgan kondensat miqdori:

$$B_{a2} = b_{yo} \cdot 0,95 = 96 \cdot 0,95 = 90 \text{ kg.}$$

Yog' kislotalarni yuvish jarayonida ushlab qolningan namlik miqdori (0,5%):

$$B_{a3} = G_{K2} \cdot 0,005 = 960,8 \cdot 0,005 = 5 \text{ kg.}$$

Sexda olinadigan kondensat miqdori:

$$B_a = B_{a1} + B_{a2} - B_{a3} = 300 \text{ kg/t.}$$

Bug' sarfini hisoblash

1.Birinchi davrdan oldin yog'larni $t_1 = 125^\circ C$ dan $t_2 = 225^\circ C$ cha o'tkir bug' ($P=2,5 \text{ MPa}$) bilan isitish, yog'ning issiqlik sig'imi $c = 2,72 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K} = 0,65 \text{ kkal/kg} \cdot \text{grad}$:

$$D_1 = 1000 \cdot 0,65(225 - 125) / 446 = 145,74 \text{ kg.}$$

$446 \text{ kkal/kg} - \text{bug}' \text{ning foydali issiqlik berishi.}$

2.Birinchi davrda glitserinli suvni avtoklavda $t_1 = 175^\circ C$ dan $t_2 = 225^\circ C$ cha o'tkir bug' ($P=2,5 \text{ MPa}$) bilan isitish, glitserinli suvning issiqlik sig'imi $c = 4,35 \text{ kJ/kg} \cdot \text{grad} = 1,04 \text{ kkal/kg} \cdot \text{grad}$:

$$D_2 = 474,4 \cdot 1,04(225 - 175) / 446 = 55,31 \text{ kg.}$$

3.Ikkinchidagi davrdan oldin qisman parchalangan yog'larni $t_1 = 195^\circ C$ dan $t_2 = 225^\circ C$ cha o'tkir bug' ($P=2,5 \text{ MPa}$) bilan isitish. Qisman parchalangan yog' miqdori $G_{ki} = 966,2$, yog'ning issiqlik sig'imi $c = 2,93 \text{ kJ/kg} \cdot \text{grad} = 0,7 \text{ kkal/kg} \cdot \text{grad}$:

$$D_3 = (966,2 + 12) \cdot 0,7(225 - 195) / 446 = 46,06 \text{ kg.}$$

Oldingi jarayondan qaytarilgan yog'ning 60% zi birinchi davrda parchalanadi, yani 30 kg (3%) dan 18 kg parchalanadi, 12 kg esa ikkinchi davrga o'tadi.

4.Ikkinchidagi davrdan oldin 300 kg kondensatni $t_1 = 95^\circ C$ dan $t_2 = 225^\circ C$ cha o'tkir bug' ($P=2,5 \text{ MPa}$) bilan isitish:

$$D_4 = 300 \cdot 1,11(225 - 95) / 446 = 97,06 \text{ kg.}$$

5.Reaktsion massani qaynatish uchun oraliq bug' sarfi, amaliy ma'lumotlarga ko'ra 1 t yog' uchun 250 kg bug' sarflanadi:

$$D_5 = 250 \text{ kg.}$$

6.Avtoklavda issiqlik yo'qotishlarni kompensatsiya qilish (amaliy ma'lumotlarga ko'ra 1 t yog' uchun 7 kg):

$$D_6 = 7 \text{ kg.}$$

7.Ikkinchidavrda 300 kg kondensatni $t_1 = 65^\circ C$ dan $t_2 = 95^\circ C$ cha o'tkir bug' (P=0,3MPa) bilan isitish:

$$D_7 = 300 \cdot (95 - 65) / 530 = 17,0 \text{ kg.}$$

8.Yog' kislotalarni yuvish uchun 100 kg kondensatni $t_1 = 65^\circ C$ dan $t_2 = 100^\circ C$ cha o'tkir bug' (P=0,3MPa) bilan isitish:

$$D_8 = 100 \cdot (100 - 65) / 530 = 6,6 \text{ kg.}$$

9.Qushimcha sarflar (amaliy ma'lumotlarga ko'ra 1 t yog' uchun 4 kg):

$$D_9 = 4 \text{ kg}$$

Bug'ning 1 t yog' uchun umumiylarfi miqdori:

$$D_u = (D_1 + D_2 + \dots + D_9) = 628,8 \text{ kg.}$$

Masalalar. 1. Texnik salomasning parchalanishi natijasida birinchi davrda hosil bo'lgan glitserin va yog' kislotalarning miqdorini hisoblang. Dastlabki ma'lumotlar:

Ko'rsatkichlar	Variantlar				
	1	2	3	4	5
Liniya unumdonligi, t/sut	20	15	12	10	25
texnik salomasning turi	paxta moyidan	kungaboqar moyidan	paxta moyidan	raps moyidan	paxta moyidan
salomasning sovunlanish soni, Ss	180	181	178	169	175
kislotali soni, Ks	3,8	1,9	3,2	1,75	4,1
erkin yog' kislotalarning miqdori, $K_{\text{er}} \%$	2	0,9	1,8	0,85	2,1
efir soni, E	176,2	165,5	180,2	155,3	179,1
parchalanayotgan salomas tarkibida yog' kislotalar miqdori $Y_{\text{ok}}, \%$	95,7	93,3	90,9	94,6	95,8
yog' larni gidrolizlanish darajasi, birinchi davrdan keyin $R_1, \%$	85	82	83	85	84

2. I t palma yog‘ining parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan glitserin miqdorini aniqlang.


Nazorat savollari:

1. Yog‘larni gidroliz jarayonining axamiyati.
2. Gidroliz tezligiga turli omillarning ta’siri.
3. Yog‘ kislotalarida suvning erishi.
4. Yog‘larning gidrolizlanish darajasi.
5. Gidroliz jarayonida reaktsion suvning miqdori.
6. Gidroliz jarayonida glitserin va yog‘ kislotalarning chiqishi qanday aniqlanadi?


V. XO'JALIK VA ATIR SOVUNLARI ISHLAB CHIQARISHNING MODDIY HISOBI

Sovun bu yuqori molekulali yog‘ va naften kislotalarining tuzlaridir. Yuvish va tozalash uchun ishlataladigan sovun 10 dan 20 gacha uglerod atomidan tashkil topgan yog‘ kislotalarining natriyli va kaliyli tuzlaridan iborat. Tarkibida uglerod atomi soni 10 dan kam bo‘lgan yog‘ kislotalarining tuzlari yuvish qobiliyatiga ega emas.

Sovun yog‘ kislotalarining o‘yuvchi ishqorlar va karbonatli ishqorlari bilan neytrallash tufayli hosil bo‘ladi:



Shuningdek sovun neytral yog‘larni sovunlanishi natijasida ham hosil bo‘ladi:



Xo‘jalik sovuni ishlab chiqarishning moddiy hisoblar

Hisoblar quvvati 100 t/sut bo‘lgan sovun (65% li) pishirish sexi misoldida olib boriladi.

Yog‘ aralashmaning titri quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$t_{ar} = \sum t_{qot} \cdot a^{\circ}C, \quad (5.1)$$

bu erda t_{qot} - yog‘ aralashmadagi har bir komponentning titri, ${}^{\circ}\text{C}$;

a - yog‘ aralashmadagi har bir komponentning miqdori, %.

$$t_{ar} = (40 \cdot 47 + 28 \cdot 35 + 10 \cdot 32 + 12 \cdot 48 + 10 \cdot 25) / 100 = 40,06 {}^{\circ}\text{C}$$

Sovun ishlab chiqarishda yog‘ kislotalar, yog‘ o‘mini bosuvchi mahsulotlar va ishqor sarfi bu moddalarning molekulyar og‘rligiga bog‘liq. Yog‘ kislotalari aralashmasining o‘rtacha molekulyar og‘rligi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$N = \frac{a_1}{M_1} + \frac{a_2}{M_2} + \dots + \frac{a_n}{M_n} = \frac{G}{M_{ar}} \quad (5.2)$$

$$M_{or} = \frac{G}{N},$$

5.1-jadval

65 % xo'jalik sovunning yog'li retsepturasi

Yog'li xom ashyo	Titr, °C	Yog' kislotalar ning sarfi, %	Neytrilla- nish soni	Yog' kislotalarning o'rtacha molekuluar massasi:
Salomasning yog' kislotalari	45...48	40	200	280
Texnik hayvon yog'larning yog' kislotalari	34...36	28	204,5	274
C ₁₀ -C ₁₆ fraktsiyali SYOK	30...33	10	255	220
C ₁₇ -C ₂₀ fraktsiyali SYOK	44...52	12	197	284
Soapstokning yog' kislotalari	25	10	200	276
Jami	-	100		


bu erda N – yog' aralashmaning molar soni;

M₁, M₂...M_n - yog' aralashmadagi har bir komponentning o'rtacha molekuluar massasi.

$$N = \frac{40}{280} + \frac{28}{274} + \frac{10}{220} + \frac{12}{284} + \frac{10}{276} = 0,368$$

$$M_{or} = \frac{100}{0,368} = 271,74$$

Sovun hosil bo'lish jarayoni quyidagi sxema bo'yicha boradi:



Og'irlilik bo'yicha suvsiz (quruq) sovunning chiqishi:

$$G_m = \text{RCOOH} + \text{Na} - H$$

Sarflangan yog' kislotalari massasiga nisbatan foiz hisobida quruq sovunning chiqishi:

$$G_s = \frac{M_{or} + M_{me} - 1}{M_{or}} \cdot 100 = \frac{271,74 + 23 - 1}{271,74} \cdot 100 = 108,1 \quad (5.3)$$

bu erda M_{me} – sovun hosil qiluvchi ishqoriy metallning molekuluar og'irligi, M_{me}=23;

1- vodorodning atom og'irligi.

Tarkibida 65% yog' kislotalari bo'lgan tovar holidagi sovunda haqiqiy sovunning miqdori:

$$G = \frac{65 \cdot G_s}{100} = \frac{65 \cdot 108,1}{100} = 70,27$$

Tayyor sovundagi namlik miqdori:

$$d_s = 100 - (G + O_i + O_t + n) \quad , \quad (5.4)$$

bu erda O_i va O_t – tayyor sovun tarkibida o'yuvchi ishqor va natriy karbonat qoldig'i;

n – suvda erimaydigan cho'kma va tuzlarning miqdori, amaliy ma'lumotlarga muvotiqligiga n=1.

$$d_s = 100 - (70,27 + 0,17 + 0,14 + 1) = 28,42\%$$

5.2-jadval

1 t 65% sovun olish uchun yo'qotishlarni hisobga olgan holda yog'li xom ashyo sarfi

Yog'li xom ashyo	Yog'li aralash maning tarkibi, %	1 t 65% sovun uchun komponentlar sarfi, kg		Yog'larga nisbatan qayta hisoblash koefitsienti
		yo'qotishlarni hisobga olmagan holda	yo'qotishlarni hisobga olgan holda	
Jami	100	650	652,6	-
Salomasning yog' kislotalari	40	260	261,0	0,95
Texnik hayvon yog'larning yog' kislotalari	28	182	182,7	0,95
C ₁₀ -C ₁₆ fraktsiyali SYOK	10	65	65,3	1
C ₁₇ -C ₂₀ fraktsiyali SYOK	12	78	78,3	1
Soapstokning yog' kislotalari	10	65	65,3	0,98

*Yo'qotishlar 0,4% tashkil etadi

Ishqor sarfi

1 kg yog' kislotalardan suvsiz (100%) sovun hosil qilish uchun sarflangan ishqor miqdori:

$$Is_k = \frac{M_{is}}{M_k} \text{ kg/kg}, \quad (5.5)$$

bu erda M_{is} – ishlataladigan ishqorning molekulyar massasi.

Suvsiz sovun massasiga nisbatan:

$$Is_m = \frac{M_{is}}{M_k + M_{me} - 1} \text{ kg/kg.} \quad (5.6)$$

Ishqor sarfini neytrillash sonidan Ns ham aniqlash mumkin:

$$Is_{yo} = \frac{Ns \cdot M_{is}}{56,1} \text{ kg/t.} \quad (5.7)$$

Ishqorning nazariy sarfi:

$$Is_n = \frac{y \cdot M_{is}}{M_{o'r}} \text{ kg/t,} \quad (5.8)$$

bu erda $y = 1$ t sovun uchun yog‘ kislotalar sarfi, kg;

$M_{o'r}$ – yog‘li komponentlarning o‘rtacha molekulyar massasi.

Demak, 65% li sovun pishirish uchun natriy ishqorning sarfi:

$$Is_n = \frac{652,6 \cdot 40}{271,74} = 96,06 \text{ kg/t,} \quad (5.9)$$

Yog‘ kislotalarning neytrallash soni ma’lum bo‘lganda ishqor sarfi:

$$Is_n = \frac{y \cdot \sum Ns \cdot a M_{is}}{56,1 \cdot 1000} \text{ kg/t,}$$

$$\sum Ns \cdot a = (40 \cdot 200 + 28 \cdot 2045 + 10 \cdot 255 + 12 \cdot 197 + 10 \cdot 200) / 100 = 2064$$

$$Is_n = \frac{652,6 \cdot 206,4 \cdot 40}{56,1 \cdot 1000} = 96,04 \text{ kg/t,}$$

Amalda ishqor sarfi nazariy sarfga nisbatan ortadi. Bunga sabab tayyor sovunda qoladigan erkin ishqor miqdori.

Sovundagi erkin ishqor miqdori uning massasiga nisbatan 0,15-0,2% tashkil etadi. Hisoblash uchun $O_i = 0,17\%$ yoki 1,7 kg/t qabul qilinadi. Erkin natriy karbonat qoldiq miqdori sovun massasiga nisbatan 0,3-0,5% tashkil etadi, hisoblash uchun

$$O_i = 0,4\% \text{ yoki } 4 \text{ kg/t.}$$

Kaustik sodaga hisoblangan kaltsiyangan soda miqdori:

$$O_{i2} = O_i \cdot 0,71 = 0,4 \cdot 0,71 = 0,28\% = 2,8 \text{ kg/t.}$$

bu erda 0,71 o‘tkazish koefitsienti.

65% -li sovun uchun natriy gidroksid sarfi:

$$I_{65} = Is_n + O_i + O_{i2} = 96,0 + 1,7 + 2,8 = 100,5 \text{ kg/t}$$

Sovun ishlab chiqarish uchun natriy va kaliy ishqorlari hamda ularning karbon tuzlari qo'llaniladi.

Ishqorning umumiy sarfi kaustik soda sarfi bo'yicha aniqlanadi. Kaltsiyangan soda ishlataliganda o'tish koeffitsientlardan foydalilanadi:

$$f = \frac{M_{ix}}{M_{is}}, \quad (5.10)$$

bu erda M_{ix} -aniqlanadigan ishqorning ekvivalent massasi.

5.3-jadval

Hisoblangan o'tish koeffitsientlari

Ishqor	O'tish koeffitsienti f			
	NaOH	KOH	Na ₂ CO ₃	K ₂ CO ₃
NaOH	1	0,71	0,76	0,58
KOH	1,4	1	1,06	0,81
Na ₂ CO ₃	1,33	0,95	1	0,77
K ₂ CO ₃	1,73	1,24	1,3	1

Sovun pishirishda natriy gidroksid va natriy karbonat sarfini alohida hisoblash uchun karbonatli sovunlanish darajasini belgilash zarur.

Yog'lanri qayta ishlash korxonalarining ma'lumotlariga muvofiq karbonatli sovunlanish darajasini 80% deb qabul qilish mumkin. Yog'kislotalarning qolgan 20% (shu jumladan parchalangan yog'dagi glitseridlar) natriy gidroksid bilan sovunlanadi.

65% -li sovun uchun kaltsiyangan soda sarfi:

$$K_{65} = \frac{(Is_n \cdot 0,80f + O_i)1,01}{0,97} = \frac{(96 \cdot 0,80 \cdot 1,33 + 4)1,01}{0,97} = 110,5 \text{ kg/t} \quad (5.11)$$

65% -li sovun uchun kaustik soda sarfi:

$$Ks_{65} = \frac{(Is_n \cdot 0,20 + O_i)1,01}{0,92} = \frac{(96 \cdot 0,20 + 1,7)1,01}{0,92} = 23 \text{ kg/t} \quad (5.12)$$

bu erda 0,97 va 0,92 - soda mahsulotdagi gidroksid va natriy karbonatning tegishli ravishda miqdori;

1,01 - soda mahsulotlarni yo'qolishini hisobga olish koeffitsiyenti.

65 % li sovun uchun soda mahsulotlarning sarfi:

$$K_{65u} = \frac{K_{65}}{f} + Ks_{65} = \frac{110,5}{1,33} + 23 = 106,1 \text{ kg/t.} \quad (5.13)$$

Karbonat angidrid gazining chiqishini aniqlash

Yog'li aralashmani natriy karbonat bilan neytrallaganda karbonat angidrid gazi ajralib chiqadi. Bunda ro'y berayotgan oxirgi reaktsiyani quyidagi sxema bo'yicha ifodalash mumkin:



Kaltsiyangan sodaning har bir gramm-molekulasiga karbonat angidrid gazining bir gramm-molekulasini ajraladi yoki reaksiyada qatnashayotgan 1 kg kaltsiyangan sodaga ajralayotgan karbonat gazining nazariy chiqishi quyidagini tashkil qiladi:

$$G_{\text{CO}_2,n} = \frac{\text{CO}_2}{\text{Na}_2\text{CO}_3} = \frac{44}{106} = 0,415 \text{ kg.} \quad (5.14)$$

65 % li sovun pishirishda karbonat gazining 1 t sovun uchun nazariy chiqishi:

$$G_{\text{CO}_2,a} = I_{\text{so}} \cdot 0,80f \cdot G_{\text{CO}_2,n} = 96 \cdot 0,80 \cdot 1,33 \cdot 0,415 = 42,4 \text{ kg.} \quad (5.15)$$

Uskunalarni tozalash va kompresslashda gazning 15% yo'qoladi. Shunday qilib karbonat angidrid gazining umumiy chiqishi:

$$G_{\text{CO}_2,a} = 42,4 \cdot 0,85 = 36,0 \text{ kg.}$$

5.4-jadval

65 % li sovun ishlab chiqarish uchun xom ashyo sarfi

Xom ashyo	1 t uchun, kg	Sutkada, t
Salomasning yog' kislotalari	261,0	26,10
Texnik hayvon yog'larning yog' kislotalari	182,7	18,27
C ₁₀ -C ₁₆ fraktsiyali SYOK	65,3	6,53
C ₁₇ -C ₂₀ fraktsiyali SYOK	78,3	7,83
Soapstokning yog' kislotalari	65,3	6,53
Jami yog'li xom ashyo	652,6	65,26
Natriy gidroksid	23	2,3
Natriy karbonat	110,5	11,05

Suv va bug' sarfi

Bug' sarfini aniqlash

1. Sovun pishrishda yog'lar aralashmasini $t_1 = 70^\circ\text{C}$ dan $t_2 = 115^\circ\text{C}$ cha yopiq bug' ($P=3\text{ MPa}$) bilan isitish (yog' aralashmaning issiqlik sig'imi $c = 0,55\text{ kkal/k g} \cdot \text{grad}$):

$$D_1 = 652,6 \cdot 0,55(115 - 70) \cdot 1,05 / 467 = 36,3 \text{ kg}.$$

467 kkal/kg – bug'ning foydali issiqlik berishi.

2. Natriy karbonat eritmasini $t_1 = 70^\circ C$ dan $t_2 = 95^\circ C$ cha yopiq bug' ($P=3 \text{ MPa}$) bilan isitish.

Eritmaning issiqlik sig'imi $c = 0,8 \text{ kkal/kg} \cdot \text{grad} = 3,35 \text{ kJ/kg} \cdot \text{K}$,

Kontsentratsiyasi 350 kg/m^3 , zichligi 1297 kg/m^3 bo'lgan eritmaning sarfi:

$$V_k = 110,5 \cdot 0,97 \cdot 1297 / 350 = 397,2 \text{ kg/t},$$

$$D_2 = 397,2 \cdot 0,8(95 - 70) \cdot 1,05 / 467 = 18 \text{ kg}$$

bu erda $1,05$ - bug' yo'qolishini hisobga olish koeffitsiyenti, $\eta = 1,05$.

3. Natriy gidroksid eritmasini $t_1 = 70^\circ C$ dan $t_2 = 95^\circ C$ cha yopiq bug' bilan isitish.

Issiqlik sig'imi $c = 0,76 \text{ kkal/kg} \cdot \text{grad} = 3,18 \text{ kJ/kg} \cdot \text{grad}$;

kontsentratsiyasi 400 kg/m^3 , zichligi 1345 kg/m^3 bo'lgan eritmaning sarfi:

$$V_k = 23 \cdot 0,92 \cdot 1345 / 420 = 67,8 \text{ kg/t},$$

$$D_3 = 67,8 \cdot 0,76(95 - 70) \cdot 1,05 / 467 = 3 \text{ kg}.$$

4. Yod' aralashmasi, natriy gidroksid va natriy karbonatning hamma aralashtirgichlari bo'yicha issiqlik yo'qotishlarini kompensatsiyasi uchun bug' sarfi (issiqlik yo'qotilishning umumiy yuzasi $F=270 \text{ m}^2$, isitish yuzanining issiqlik yo'qotilishlari $-90 \text{ kkal/m}^2 \cdot \text{soat}$):

$$D_4 = 270 \cdot 90 \cdot 24 / 467 \cdot 100 = 12,5 \text{ kg}.$$

5. TNB-2 uskunada ochiq bug' sarfi (62% li sovun uchun hisoblangan bug' sarfi) 57 kg tashkil etadi. 65% li sovun pishirish uchun:

$$D_5 = 57 \cdot 65 / 62 = 60 \text{ kg}.$$

6. Pishirilgan sovunni vakuum – quritgich kamerasidan oldin $t_1 = 85^\circ C$ dan $t_2 = 110^\circ C$ cha yopiq bug' bilan isitish. Bunday harorat oralig'ida sovunning issiqlik sig'imi (σ rtacha) $c = 0,69 \text{ kkal/kg} \cdot \text{grad}$.

$0,6 \text{ MPa}$ bosim ostidagi bug'ning sarfi:

$$D_6 = 1000 \cdot 0,69(110 - 85) \cdot 1,05 / 451 = 40,1 \text{ kg}.$$

7.Hisobga olinmagan bug‘ sarfi (umumiylar dan 10%):

$$D_7 = (D_1 + D_2 + \dots + D_6) \cdot 0,1 = 17 \text{ kg}$$

8.Bug‘ning 1 t sovun uchun umumiylar dan miqdori:

$$D_u = (D_1 + D_2 + \dots + D_7) = 187 \text{ kg}.$$

Suv sarfini aniqlash

1.Kaltsiyalangan soda eritmasini tayyorlash uchun suv sarfi (kontsentratsiyasi 350 kg/m^3):

$$W_1 = \frac{397,2}{1297} = 0,31 \text{ m}^3.$$

2.Kaustik soda eritmasini tayyorlash uchun suv sarfi (kontsentratsiyasi 400 kg/m^3):

$$W_2 = \frac{67,8}{1345} = 0,05 \text{ m}^3.$$

3.TNB-2 apparatidan chiqayotgan karbonat gazini sovutish va oraliq bug‘ni kondensatsiyalash uchun suv sarfi. Karbon gazining issiqlik sig‘imi $c = 0,22 \text{ kkal/kg·grad}$, ($0,92 \text{ kj/kg·grad}$).

Qurilmadan chiqayotgan bug‘-gaz aralashmaning harorati $t_{1a} = 115^\circ\text{C}$ sovutkichdan keyin - $t_{2a} = 40^\circ\text{C}$. Chiqayotgan bug‘ning issiqlik sig‘imi 645 kkal/kg .

Suvning boshlang‘ich harorati $t_{1x} = 20^\circ\text{C}$, oxirgisi - $t_{2x} = 40^\circ\text{C}$.

65%li sovun pishirishda kondensatsiyalangan bug‘ning miqdori hosil bo‘lgan karbonat angidridi gazi miqdori ($42,4 \text{ kg}$) va qurilmaga beriladigan o‘tkir bug‘ning (60 kg) yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Suv sarfi:

$$W_3 = \frac{(42,4 + 60)(645 - 40) + 42,4 \cdot 0,22(115 - 40)}{(40 - 20) \cdot 1000} = 3,1 \text{ m}^3.$$

4.Vakuum-quritish uskunasining kondensatorida suv bug‘ining kondensatsiyasi uchun suv sarfi. Amaliy natijalar bo‘yicha:

$$W_4 = 9 \text{ m}^3.$$

5.Vakuum-nasos silindrini sovutish uchun:

$$W_5 = 0,3 \text{ m}^3.$$

6. Hisobga olinmaydigan sarflar (hisobga olinayotganiga nisbatan 10%):

$$W_6 = (W_1 + W_2 + \dots + W_5) \cdot 0,1 = 1,3 \text{ m}^3.$$

Umumiy suv sarfi:

$$W_u = W_1 + W_2 + \dots + W_6 = 14,1 \text{ m}^3.$$

Masalalar. 1. Quvvati 30 t/sut bo'lgan 72% li sovun pishirish uchun xom ashyo sarfini aniqlang.

2. Sutkada 20 t 80%li atir sovun ishlab chiqarish uchun moddiy hisobini bajaring. Sovun titri 40°.

80% li atir sovunning retsepturasi

Yog' kislotalari	Retseptura bo'yicha sarfi	
	%	kg/t
Hayvon yog'i	60	507
Paxta moyidan tayyorlangan salomas	20	169
C ₁₀ -C ₁₆ fraktsiyali SYOK	20	169
C ₁₇ -C ₂₀ fraktsiyali SYOK	-	-
Jami sovun pishirish uchun	100	845
Sovun osti elimga chiqindilar	4,75	40
Yo'qotishlar	0,6	5
Shu jumladan		
sovun pishirishda	0,25	2
sovunga ishlov berilganda	0,35	3
1 t sovun ishlab chiqarish uchun sarflar	95,25	805

Nazorat savollari:

1. Sovun ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo va qo'shimcha materiallar.
2. Sovun retsepturasini tuzish.
3. Xo'jalik sovun retsepturasi.
4. Atir sovuni retsepturasi.
5. Sovun pishirish jarayonini parametrlari.
6. Sovun pishirish usullari
7. Sovun pishirishda ishqor sarfini aniqlash.
8. O'tish koefitsientlardan nima maqsadda foydalilanadi?

VI. YOG' VA MOYLARNI GIDRATLASH VA NEYTRALLASH USKUNALARI HISOBI

Koagulyator- aralashtirgichlarning kerakli soni quyidagi tenglama-dan aniqlanadi:

$$z = V \cdot \tau / (60V_1), \quad (6.1)$$

bu erda V - qayta ishlanayotgan moy va suv aralashmasi miqdori, m^3/soat ,

$$V = G / \rho, \quad (6.2)$$

bu erda G - aralashma miqdori, kg/soat ;

ρ - aralashma zichligi kg/m^3 ;

τ - moy va suv aralashmaning koagulyatorda bo'lish vaqt, $\tau = 30 \dots 40 \text{ min}$;

V_1 - koagulyatorning ishchi hajmi, m^3 .

$$V_1 = 1,5 \text{ m}^3 \text{ bo'lganda } z = 0,011V \cdot \tau.$$

Koagulyator- aralashtirgichning elektrodvigatel quvvati, kVt :

$$P = 0,0013K \cdot \rho \cdot n^3 \cdot d^5, \quad (6.3)$$

bu erda K - aralashtirgichning turi va aralashtirish rejimiga bog'liq bo'lgan quvvat koeffitsienti, K - Reynolds kriterisi bilan tavsiflanadi:

$$Re_m = n \cdot d^2 \cdot \rho / \mu,$$

bu erda ρ - aralashtirayotgan suyuqlik zichligi, kg/m^3 ;

n -aralashtirgichning aylanish tezligi, sek^{-1} ;

d -parraklarning aylanish diametri, m ;

μ - aralashtirayotgan suyuqlikning dinamik qovushqoqlik koeffitsienti, $\text{Pa} \cdot \text{sek}$.

Koagulyatorda parrakli aralashtirgichning aylanish tezligi 400 min^{-1} ($6,667 \text{ sek}^{-1}$), aylanish diametri $D/3 = 1,2/3 = 0,4 \text{ m}$ (D -koagulyator korpusining ichki diametri) bo'lganda:

$$P = 0,004K \cdot \rho. \quad (6.4)$$

Quvvat koeffitsienti K grafikdan aniqlanadi (1-ilova).

Natriy gidroksid eritmasini kunlik sarfini saqlash uchun sig'им hajmi:

$$V_i = (84,6 \dots 87,4) \cdot 10^{-5} G_i, \text{ m}^3 \quad (6.5)$$

bu erda G_i - kontsentratsiyasi 40...42% bo'lgan natriy gidroksid eritmaning kunlik sarfi, kg/sut.

Neytralizatorlarning kerarli soni:

$$z = 0,0417 G \cdot \tau / G_1, \quad (6.6)$$

bu erda G – rafinatsiyalanayotgan moyning miqdori, t/sut;

τ – neytralizator ishi to'liq siklning davomiyligi, soat;

G_1 – bir vaqtning o'zida neytralizatorga yuklanadigan moy miqdori (5, 10, 20t).

Neytralizatorda bug'ning sarfi:

$$D = (5,6 \dots 5,7) G_1, \text{ kg/soat.} \quad (6.7)$$

Neytralizatorni to'ldirish koeffitsienti $\varphi = 0,7$.

Neytralizatorning to'liq hajmi:

$$V = (1,4 \dots 1,45) \cdot G_1 / \rho, \text{ m}^3, \quad (6.8)$$

bu erda ρ – moyning zichligi, kg/m³.

1-misol. Gidratatsiyaga kelayotgan moy miqdori -12 t/soat; gidratatsiya uchun suv sarfi -3% (moy massasiga nisbatan). Apparatga kiradigan moy harorati -50°C. Ishchi hajmi 1,5 m³ bo'lgan koagulyator- aralashtirgichlarning kerakli soni aniqlansin.

Koagulyator- aralashtirgichlarning kerakli soni quyidagi tenglamadan (6.1) aniqlanadi:

$$z = V \cdot \tau / (60 V_1),$$

Moy-suv aralashmasi miqdori:

$$V = V_1 + V_2,$$

bu erda V_1 va V_2 – moy va suv sarfi, m³/soat.

$$V_1 = G_1 / \rho_1 = 12000 / 904 = 13,274 \text{ m}^3/\text{soat},$$

bu erda G_1 – moy sarfi, kg/soat; ρ_1 - 50°C haroratda moyning zichligi, kg/m³.

$$V_2 = G_2 / \rho_2 = 0,03 \cdot 12000 / 1000 = 0,36 \text{ m}^3/\text{soat.}$$

$$V = 13,274 + 0,36 = 13,634, \text{ m}^3/\text{soat.}$$

Moy va suv aralashmaning koagulyatorda bo'lish vaqtı, $\tau = 40$ min teng.

Koagulyator- aralashtirgichlarning kerakli soni:

$$z = 0,011 \cdot 13,634 \cdot 40 = 5,998 \text{ dona}.$$

Demak, 6 dona koagulyator-aralashtirgich o'matiladi.

2-misol. Kuniga 300 t moyni neytrallash uchun neytralizatorlar soni va bug' sarfi aniqlansin. Bir vaqtning o'zida neytralizatorga yuklanadigan moy miqdori 20 t; to'liq siklning davomiyligi 8 soat.

Neytralizatorlarning kerarli soni (6.6) :

$$z = 0,0417 \cdot 300 \cdot 8 / 20 = 5,004 = 5 \text{ dona}.$$

Neytralizatorda bug' sarfi (6.7):

$$D = (5,6 \dots 5,7) \cdot 20 \cdot 5 = 560 \dots 570 \text{ kg/soat}.$$

Masalalar. 1. Ishchi hajmi $1,5 \text{ m}^3$ bo'lgan to'rtta koagulyator- aralash-tirgichlarga bir kunda yuklanadigan moy miqdori aniqlansin. (Moy turi belgilanadi).

2. Kuniga 60 t moyni neytrallash uchun neytralizatorlar soni va bug' sarfi aniqlansin.

Rafinatsiyalangan yog'larni yuvish va quritish uskunalari hisobi

Rafinatsiya qilingan moylar yuvishdan oldin yuvish apparatida $90 \dots 95^\circ\text{C}$ cha isitiladi. Bug' sarfi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$D = [G_1 c_1 \Delta t_1 + G_2 c_2 \Delta t_2 + A \alpha_0 \tau (t_d - t_h)] / r_k \text{ kg/sikl}, \quad (6.9)$$

bu erda G_1 - apparat massasi, kg;

c_1 - po'latning solishtirmna issiqqlik sig'imi, $c_1 = 0,48 \text{ kj/kg} \cdot \text{grad}$;

Δt_1 - apparatning boshlang'ich va oxirgi haroratlar farqi, $^\circ\text{C}$;

G_2 - isitilayotgan moy miqdori, kg;

c_2 - moyning solishtirmna issiqqlik sig'imi, $\text{kj/kg} \cdot \text{grad}$;

Δt_2 - moyning boshlang'ich va oxirgi haroratlar farqi, $^\circ\text{C}$;

A - apparatning tashqi yuzasi, m^2 ;

α_0 - apparat devorlaridan havoga issiqlik berish koefitsienti,
 $kVt/(m^2 \cdot K)$;

τ - yuvish jarayonining davomiyligi, $\tau = 23400 \dots 28800$ sek;

t_d - devor yuzasi harorati, 0C ;

t_h - havo harorati, 0C ;

r_k - bug'ning nisbiy kondensatsiyalanish issiqligi, kJ/kg .

Bug' sarfining taxminiy hisobi:

$$D = 5 \cdot 10^{-4} (6G_1 + 27G_2 + 0,6A \cdot \tau) \text{ kg/sikl}, \quad (6.10)$$

Yuvish apparatida moylarni quritish uchun bug' sarfi:

$$D \cong 0,01132G(x_b - x_o) \text{ kg}, \quad (6.11)$$

bu erda G -quritilayotgan moy miqdori, $kg/soat$;

x_b va x_o - moyning boshlang'ich va oxirgi namligi, %.

Vakuum-quritish apparatida moyni quritish va deaeratsiya qilish uchun issiqlik sarfi:

$$Q \cong 0,01G(x_b - x_o) \cdot r \text{ kj/soat}, \quad (6.12)$$

bu yerda r - bug'lanish issiqligi, $r = 2450 \dots 2416 \text{ kj/kg}$.

Moydag'i qoldiq namlikning bug'lanishi hisobiga moy haroratining pasayishi:

$$\Delta t = Q/G \cdot c, \quad {}^0C \quad (6.13)$$

bu erda c - moyning nisbiy issiqlik sig'imi, moyni isitish haroratida $c = 2,05 \dots 2,09 \text{ kj/kg} \cdot \text{grad}$;

$$\Delta t = 0,478 \dots 0,488 Q/G. \quad (6.14)$$

Apparatdan chiqayotgan moyning harorati:

$$t_2 = t_1 - \Delta t, \quad {}^0C,$$

bu erda t_1 - moyni quritish harorati, $t_1 = 85 \dots 95 {}^0C$.

Ajratilgan havo miqdori:

$$G_h = G(x_b - x_o) \cdot 10^{-3}. \quad (6.15)$$

Vakuum-quritish apparatning ichki diametri:

$$d_i \geq (0,0024 \dots 0,003) \sqrt{G(x_b - x_o)} v'', \quad (6.16)$$

bu erda v'' - bug'ning solishtirma hajmi, m^3/kg .

Bug'lanish va deaeratsiya zonaning sig'imi;

$$V_b = (9 \dots 11,1) G(x_b - x_o) \cdot v'' \cdot 10^{-6} \text{ m}^3. \quad (6.17)$$

Bug'lanish va deaeratsiya zonaning balandligi:

$$h_b = 1,27 V_b / d_i^2 \text{ m.} \quad (6.18)$$

Separatsiya zonaning balandligi:

$$h_s = 0,32 V_b / d_i^2 \text{ m.} \quad (6.19)$$

Quritilgan moyni qabul qilish zonaning balandligi:

$$h_q = 0,064 G / d_i^2 \cdot \rho \text{ m,} \quad (6.20)$$

bu erda ρ -quritilgan moyning zichligi, kg/m^3 .

Apparatning to'liq balandligi:

$$H = h_b + h_s + h_q, \text{ m} \quad (6.21)$$

$$\text{yoki } H \cong (1,6 V_b + 0,064 G / \rho) / d_i^2. \quad (6.22)$$

Apparatning to'liq sig'imi:

$$V = G \left[(11,25 \dots 13,875) v'' (x_b - x_o) \cdot 10^{-6} + 0,05 / \rho \right] \text{ m}^3. \quad (6.23)$$

1-misol. Soatiga 5000 kg moyni yuvish apparatida quritish uchun bosimi 0,3MPa bo'lgan bug' sarfi aniqlansin. Moyning boshlang'ich va oxirgi namliklari 0,5 va 0,1% teng.

Quyidagi tenglamadan (6.11) bug' sarfi aniqlanadi:

$$D = 0,01132 \cdot 5000 (0,5 - 0,1) = 22,64 \text{ kg/soat.}$$

2-misol. Vakuum-quritish apparatida soatiga 12760 kg moy quritiladi. Moyning boshlang'ich namligi -0,45%, oxirgi -0,12%. Apparatdagi qoldiq bosim miqdori 2kPa, harorat - 95°C . Apparatning to'liq sig'imi va balandligi aniqlansin.

Qoldiq bosim miqdori 2kPa bo'lganda bug'ning solishtirma hajmi $v = 67,006 \text{ m}^3/\text{kg}$ teng.

Bug'lanish va deaeratsiya zonaning sig'imi:

$$V_b = (9 \dots 11,1) \cdot 12760 \cdot (0,45 - 0,12) \cdot 67,006 \cdot 10^{-6} = 2,54 \dots 3,13 \text{ m}^3.$$

Yoki $V_b = 3 \text{ m}^3$.

$$d_i \geq (0,0024..0,003) \sqrt{12760(0,45-0,12)} \cdot 67,006 = 1,275..1,59 \text{ m.}$$

$d_i = 1,6 \text{ m}$ deb qabul qilamiz.

Apparatning to'liq balandligi (6.22):

$$H = (1,6 \cdot 3 + 0,064 \cdot 12760 / 874,5) / 1,6^2 = 2,24 \text{ m,}$$

874,5 – qiritilayotgan moyning zichligi, kg/m^3 .

Apparatning to'liq sig'imi:

$$V = 1276 [0,125..1,387] \cdot 67,006 / (0,45 \cdot 1,2 \cdot 10^6 + 0,05 / 874,5) = 3,904..4,645 \text{ m}^3$$

Yog'larni oqlash va dezodoratsiyalash uskunalarini hisobi

Moylarni kolonna tipidagi uzlucksiz apparatda oqlash uchun bug' sarfi:

$$D = 0,07G \text{ kg/soat,} \quad (6.24)$$

bu erda G – rafinatsiyalanayotgan moy miqdori, kg/soat .

Shu jumladan bosimi 0,3 MPa bo'lgan bug' sarfi:

$$D_1 = 0,06G ; \quad (6.25)$$

bosimi 0,8 MPa bo'lgan bug' sarfi (filtrlarni tozalash uchun):

$$D_2 = 0,01G . \quad (6.26)$$

Gorizontal oqlash apparatida moyni isitish uchun bug' sarfi:

$$D = (0,03..0,04)G \text{ kg/soat,} \quad (6.27)$$

bu yerda G – rafinatsiyalanayotgan moy miqdori, kg/soat .

D-5 davriy dezodoratorda yopiq bug' sarfi:

$$D = (0,02..0,024)G \text{ kg/soat ;} \quad (6.28)$$

o'tkir bug' sarfi:

$$D_0 = (0,115..0,145)G \text{ kg/soat,} \quad (6.29)$$

bu yerda G – dezodoratsiyalanayotgan moy miqdori, kg/soat .

Kolonna tipidagi uzlucksiz tarelkali dezodoratorda umumiy bug' sarfi:

1.kungaboqar moyi uchun

0,8 MPa bosimli bug'

$$D_1 = 0,28G ; \quad (6.30)$$

0,3 MPa bosimli bug‘

$$D_2 = 0,022G ; \quad (6.31)$$

2. salomasni dezodoratsiyasi uchun

0,8 MPa bosimli bug‘

$$D_1 = 0,39G ; \quad (6.32)$$

0,3 MPa bosimli bug‘

$$D_2 = 0,022G . \quad (6.33)$$

